

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH FAKULTETI

“LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH” KAFEDRASI

JO'RAEV ABDULLOX NASRULLA O'G'LI

“ERKIN IQTISODIY ZONALAR TASHKIL ETISH”

5341200 - “Investitsiyalarni moliyalashtirish” ta'lim yunalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun yozilgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“HIMOYAGA RUXSAT ETILDI”

“Loyihalarni moliyalashtirish”

kafedra mudiri

_____i.f.n., dots. E.Nosirov

“ ” _____ 2013 y.

Ilmiy rahbar: _____o'q. S.Yakubova

“ ” _____ 2013 y.

TOSHKENT – 2013

Kirish	3 - 5
I BOB. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari.....	6 - 22
1.1. Erkin iqtisodiy zonalar tushunchasi, kelib chiqishi va tashkil etishdagi yondashuvlar.....	6 - 10
1.2. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish maqsadi, vazifalari va turlari	11 - 18
1.3 O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi va ularning huquqiy asoslari	18 - 22
II BOB. Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi amaliyoti tahlili	23 - 49
2.1. Rivojlangan davlatlarda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar faoliyati tahlili.....	23 -31
2.2. Rivojlanayotgan davlatlarda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati tahlili.....	32 - 42
2.3. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari	42 -49
III BOB. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish istiqbollari	50-60
3.1. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari	50 - 56
3.2. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning jahon tajribasini qo'llash imkoniyatlari.....	56 - 60
Xulosa	61 .64
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	65 .68

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishishning muhim yo'nalishlaridan biri barcha ichki manbalardan unumli foydalanish hamda xorijiy investitsiyalarni faol jalb etishdir. Zero, xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga keng jalb etilishi ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqishga, import o'mini bosuvchi va eksportbob mahsulotlarni ishlab chiqarishga, aholini ish bilan ta'minlashga imkoniyat yaratadi. Mamlakatimizda investorlar, ayniqsa xorijiy investorlar uchun yaratilgan qulay investitsiya muhiti natijasida yildan- yilga iqtisodiyotimizga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmi ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan eng muhim ustuvor yo'nalishlarga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida: «2012 yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko'rsatkich 2011 yilga nisbatan 14 foizga o'sdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 milliondan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan ko'prog'i to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalardir»¹, deb ta'kidlanishi fikrimizning dalilidir. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, ularni rag'batlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ularga berilayotgan imtiyozlar, imkoniyatlar va kafolatlar tizimining amaldagi holati natijasida hukumat kafolati ostida kiritilgan xorijiy investitsiyalarga nisbatan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning salmog'i yildan-yilga ortib bormoqda. Bu ko'rsatkichni yanada oshirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning asosiy shakllaridan biri bo'lgan erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish hamda mavjud erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada rivojlantirish talab etiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashtirish sharoitida investitsiya faoliyatini

¹ I.A.Karimov "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamlı islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". T.: "O'zbekiston", 2013 yil, 9 - bet

hududlar miqyosida rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish orqali, nafaqat ayrim hududlarni, balki shu orqali butun respublika iqtisodiyotini rivojlantirishga erishish mumkin. Mamlakatning qaysi hududida, qaysi turdagi erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish bilan bog'liq masalalar respublika iqtisodchi olimlari va amaliyotchilari oldiga rejali iqtisodiyot davrida echilmagan vazifalarni qo'ymoqda. O'zbekiston iqtisodiyotiga chet el investitsiyalari va kreditlarini jalb qilish muammosi hozirda iqtisodiyotni barqarorlashtirishdagi, respublikani rivojlangan industrial mamlakatga aylantirishdagi ana shunday muhim muammolardandir.

Milliy iqtisodiyotning yangi sifat holatiga erishuvi uchun iqtisodiy siyosat sohasida yangi mezonlar va maqsadlar joriy etilishi talab qilinadi. Faqat erishilgan yutuqlarni shunchaki mustahkamlash emas, balki iqtisodiy o'sishning yangi sifatini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim bo'ladi. Ana shunday jihatlardan biri, fikrimizcha, mamlakat hududlarining investitsiya salohiyatini tahlil qilish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish natijasida erishiladigan samaralarga, jumladan xorijdan zamonaviy texnika-texnologiyalar olib kirish va ularni o'zlashtirish; boshqaruv tajribalarini o'zlashtirish; yangi ish joylarini yaratish hamda innovatsiya loyihalarini o'zlashtirish hisoblanadi. Demak, hududlar iqtisodiyotining rivoji investitsiyalarni va kreditlarni qay darajada jalb qilish va ulardan qanchalik samarali foydalanish darajasiga bog'liqdir. Alohida hudud iqtisodiyotini rivojlantirishning samarali yo'llaridan biri - shu hududda erkin iqtisodiy zonani tashkil etishdir.

Zero, ko'pgina rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda bir necha turdagi erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etilishi, shu mamlakat iqtisodiyotining rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish bo'yicha turli mamlakatlar tajribasini kengroq o'rganishning zarurligi mazkur malakaviy ish mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Malakaviy ishning maqsadi. Ishning maqsadi turli mamlakatlarda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish

hamda O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Malakaviy ishning vazifalari. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda malakaviy ish oldiga quyidagi vazifalarning bajarilishi belgilab qo'yilgan:

- erkin iqtisodiy zonalarning mazmuni, kelib chiqishi va tashkil etishdagi yondashuvlar bilan kengroq tanishish;
- erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning maqsadi, vazifalari va asosiy turlarining bir-biridan farqli jihatlarini o'rganish;
- O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi va ularning huquqiy asoslarini o'rganish;
- jahon iqtisodiyotida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;
- O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining amaldagi holatini tahlil qilish;
- mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning jahon tajribasini qo'llash imkoniyatlarini aniqlashdan iborat.

Malakaviy ishning ob'ekti respublikamiz va jahonning turli davlatlarida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar hisoblanadi.

Malakaviy ishning predmeti erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlardir.

Mavzuning nazariy va amaliy ahamiyati. Mavzu bo'yicha malakaviy ishning nazariy ahamiyati ishda ilgari surilgan nazariy-uslubiy g'oyalardan erkin iqtisodiy zonalarning mazmuni, tashkil etilishi va nazariy asoslarini o'rganishda foydalanish mumkinligi uning nazariy ahamiyatini ko'rsatadi.

Ishda keltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar O'zbekiston Respublikasida erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etishda va mavjud zonalar faoliyatini yanada takomillashtirishda foydalanish mumkinligi ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Malakaviy ishning tarkibiy tuzilishi. Malakaviy ish kirish, 3 bob, 8 bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, o'n bitta rasm va to'qqizta jadvaldan iborat.

I BOB. Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning nazariy-huquqiy asoslari

1.1. Erkin iqtisodiy zonalar tushunchasi, kelib chiqishi va tashkil etishdagi yondashuvlar

Erkin iqtisodiy zona (EIZ) - bu tadbirkorlik va boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanish uchun shart-sharoitlarni odatdagiga qaraganda qulayroq qilib o'rnatuvchi aniq belgilangan chegara va maxsus huquqiy rejimdagi suveren mamlakatning ma'lum bir hududidir.

XX asrning ikkinchi yarimlaridan boshlab erkin iqtisodiy zona xalqaro iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib kelmoqda. Jahon xo'jaligi aloqalarida erkin iqtisodiy zona xalqaro tovar almashinuvining faollashuvi, investitsiyalar mobilizatsiyasi, ish bilan bandlik darajasini o'sishi hisobiga iqtisodiy o'sish ko'rsatkichini tezlashtiruvchi omil sifatida qaralmoqda.


Erkin iqtisodiy zonani hududiy-xo'jalik jihatidan ham qadimiy, ham zamonaviy deb atash mumkin. Ularning ildizi qadim o'tmishga borib taqaladi, va mana shu vaqtning o'zida o'z amaliy faoliyatini zamonaviy rivojlanishda boyitadi.

Erkin iqtisodiy zonalarning tarixi uzoq o'tmishdan boshlanadi. 2000 yillar muqaddam, eramizdan avvalgi 166 yilda grek davlati Delosda birinchi marotaba hujjat asosida, savdoni engillashtirish maqsadida erkin iqtisodiy zonani tashkil qildilar. U erdagi savdogarlar soliqlardan, bojlardan va ma'muriy rasmiyatchiliklardan ozod etilgan.

Boshlang'ich erkin iqtisodiy zonalar deb, daryo bo'yidagi yirik portlarda joylashgan maxsus hududlar, temir yo'l zanjirlari, aeroportlar yoki ularga tegishli bo'lgan tumanlar hisoblangan. Ular xorij mahsulotlarini olib kirish, olib chiqishda erkin va boj to'lovlaridan ozod qilingan, mamlakatning bojxona hududidan ajratib olingan makonlardir.

Erkin iqtisodiy zonalarning ikkinchi bor tug'ilishi, paydo bo'lishi XX asrning ikkinchi yarimlariga to'g'ri keldi. Ular rivojlangan va rivojlanayotgan

mamlakatlarda keng tarqala boshlagan, ularning izidan esa, anchagina kechikishlar bilan o'tish iqtisodiyotida bo'lgan mamlakatlarda tuzila boshladi. Bunga mustamlaka tuzumlarning qulashi natijasida iqtisodiy rivojlanish yo'liga yuzga yaqin mustaqil davlatlarning qo'shilishi; o'nlab integratsiya uyushmalarining tashkil topishi; yangi industrial mamlakatlarning jahon xo'jaligiga faol qo'shilishi; jahon sotsialistik tuzumining qulashi; ilmiy-texnika inqilobi rivojlanishi, dunyoda raqobatning va iqtisodiy jarayonlar erkinlashuvining kuchayishi kabi omillar sabab bo'lgan.



1-rasm. Erkin iqtisodiy zonalarning rivojlanish evolyutsiyasi¹

EIZ - bu investitsiyalarni alohida mintaqalar va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, resurslarni kam chiqindili va chiqindisiz qayta ishlovchi yanada progressiv texnologiyalarni joriy qilish, xalqaro aloqa va hamkorlikka ta'sir o'tkazish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida soliqqa tortish, valyuta, bojxona va shu kabi boshqalarni tartibga solishdagi alohida tartib va shart-sharoitlar o'rnatadigan huquqiy normalar yig'indisidir.

Erkin iqtisodiy zonalar – shunday geografik hududki, unda mamlakatda qabul qilingan xo'jalik faoliyati tartibiga qaraganda imtiyozli soliq to'lash tartibi joriy etiladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, ushbu hududda davlatning iqtisodiy jarayonlarga aralashuvi kamaytiriladi va bu milliy iqtisodiy makonning bir qismi

¹ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida talaba tomonidan shakllantirildi

7

bo'lib, mamlakatning boshqa hududlarida qo'llanilmaydigan ma'lum imtiyozlar tizimi joriy etiladi. Erkin iqtisodiy zona – mamlakat hududining imtiyozli bojxona, valyuta, soliq, viza va mehnat rejimlari joriy etilgan maxsus ajratilgan qismidir.

Ushbu hudud erkinligi unga kiritilgan mahsulot bojxona to'lovlari, importga nisbatan iqtisodiy siyosat choralaridan ozod qilinishi bilan belgilanadi va EIZga tashqaridan keltirilgan mahsulotlar deklaratsiya qilinmaydi. Biroq, shu bilan birga, qonunlar mahsulot egalari va investorlarni iqtisodiy tartiblardan ozod qilmay, uni engillashtiradi.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlash va jahon xo'jalik tizimiga chuqurroq integratsiyalashish o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda jahonda EIZning 30 ga yaqin turlari mavjud.

Dunyo amaliyotida erkin iqtisodiy hududlar 50-yillarning oxiri va 60-yillarning boshlarida ko'pgina mamlakatlarda paydo bo'ldi. 90-yillarga kelib statistik ko'rsatkichlarga ko'ra, dunyo bo'yicha 1000 dan ortiq erkin iqtisodiy hududlar mavjud bo'lgan. Dunyo bo'yicha xalqaro tovar almashinuvining 1/10 qismi erkin iqtisodiy hududdan o'tadi, u erda esa 3 mln. dan ortiq odam ishlaydi.

Xorijiy adabiyotlarda ham, mahalliy adabiyotlarda ham erkin iqtisodiy hududning umumiy belgilari yoki hamma tomonidan qabul qilingan umumiy ko'rsatkichlari ko'rsatib o'tilmagan. Erkin iqtisodiy hududga eng umumiy tavsif qilib shuni aytish mumkinki, bu erda shu mamlakat hududida xo'jalik ishlarini yuritish uchun, ham qabul qilingan rejimlarga qaraganda, ham siyosiy tomondan berilgan imtiyozlarga, ham qulay geografik muhitga ega bo'lgan joy tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, u anklav (bu bir mamlakat hududining yoki qismining har tarafлама boshqa mamlakat yoki shu mamlakat hududlari bilan o'ralishi) kabidir. Bu hududda davlatning iqtisodiyotning ma'lum bir qismiga aralashuvi chegaralanadi. Bu hududda mamlakatning boshqa hududlarida amal qilinmaydigan ma'lum imtiyozlar beriladi.

1973 yil 18 mayda qabul qilingan Kioto konventsiyasida erkin iqtisodiy zona tushunchasiga rasman izoh berilgan. Unda yozilishicha, EIZ bu - ma'lum bir

davlat hududining shunday qismiki, unga olib kirilgan tovarlar bojxona hududidan tashqaridagi tovar sifatida qaralib, u bojxona tekshiruvidan va soliqlaridan ozod etiladi². Ushbu tushunchadan ko'rinib turibdiki, EIZ tom ma'noda erkin emas, balki nisbatan erkin hududdir. Bu hududga olib kirilgan tovarlar bojxona to'lovlaridan import solig'idan va import ustidan nazarotlardan ozod etilgani uchun ham bu hudud erkin iqtisodiy hudud deb ataladi. Bu shuni anglatadiki, EIZga chet eldan olib kelingan tovarlar qabul qiluvchi davlatga olib kelingan deb e'lon qilinmaydi. Shu bilan birga qonunlar tovar egalarini va sarmoyachilarini mavjud iqtisodiy huquqiy tartibotdan ozod qilmaydi, balki uni engillashtiradi.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlarida va ilmiy nashriyotlarda turli xildagi hududlarning mohiyatini yoritishda "erkin iqtisodiy zona" atamasidan foydalanadilar. Biroq bu atama uning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. U erda qo'llaniladigan iqtisodiy qoidalar, maxsus ma'muriy qonunlar, shu hududda faoliyat yuritadigan tadbirkorlarni aniq belgilangan huquqiy va xo'jalik rejimlaridan butunlay ozod qilmaydi, balki ularni engillashtiradi, ma'lum imtiyozlar beradi. Shuning uchun ham EIZni "erkin" emas, maxsus iqtisodiy hudud deb atash o'rinli bo'lar edi.

1970-80 yillarda butun dunyoda xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda eksport-ishlab chiqarish hududlari keng tarqala boshlandi. Ushbu holat import o'rnini bosa oladigan modelini faqat tashqi bozorga ixtisoslashgan tovarlarni ishlab chiqaradigan sohalarni rivojlantirish yo'li bilan eksportga mo'ljallangan modelga almashtirishning umumiy tendentsiyasini aks etadi. Janubiy-Sharqiy Osiyoda joylashgan yangi industrial mamlakatlarda tashkil qilingan bunday hududlarning ko'payishi sanoatda qayta ishlab chiqariluvchi mahsulotlarning keskin darajada o'sishiga va iqtisodiyotining ko'tarilishiga olib keldi. Bu hududlar ularning ko'pchiligiga dunyodagi eng katta eksportchi mamlakatlarga aylanishiga yordam berdi.

² Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Уч.пос. - М.: ЮНИТИ.. 2005 г., 7-стр.

Erkin iqtisodiy zonani tashkil qilish, uni tashkilotchilari tomonidan ochiq iqtisodiyot tamoyillarini amalga oshiruvchi muhim bo'g'in sifatida qarashadi. Erkin iqtisodiy zonada iqtisod tashqi dunyo bilan yuqori darajada aloqada bo'lish imkoniga ega, bojxona, soliq va investitsion rejimlar ichki hamda tashqi investitsiyalar uchun ijobiydir.

Mamlakat xorij investitsiyalariga butunlikcha yo'l ochib berishni istamagan holda yoki investitsiyalarni ma'lum bir sohaga yo'naltirish niyatida, mamlakatning ba'zi erlarida EIZlarni tashkil qiladi.

1-jadval

Erkin iqtisodiy zonani tashkil etishdagi yondashuvlar¹

Yondashuvlar	Hududiy	Funksional
Maqsadi	Ma'lum mintaqaning rivojlanish muammosini hal etish	- Iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish - Alohida ustuvor sohani rivojlantirish
Imtiyozdan foydalanuvchilar	Hududdagi korxonalar va tashkilotlar	Joylashgan joyidan qat'iy nazar ma'lum turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalar va tashkilotlar
Asosiy ko'rinishlari	- Ma'muriy -hududiy - Savdo-ombor majmualar - Sanoat va ilmiy parklar	- Moliyaviy markazlar - "Nuqta korxonalar"

Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish tarixida ikki xil yondashuv mavjud: hududiy va funksional (1-jadval). Yondashuvlarning asosida yagona preferentsial (imtiyozli) xo'jalik tartibi yotgan bo'lsa-da, ularni bir-biridan farqlaydigan tafovutlar mavjud.

Qayd etib o'tadigan ikki yondashuvdan birini tanlash mazkur erkin iqtisodiy zonani tashkil etishdan ko'zlangan maqsadning qandayligiga bog'liq. Funksional yondashuv egiluvchanroq bo'lib, "nuqta hududlar" deb atalmish hududlarni tashkil etish imkonini beradi. Ushbu yondashuv investorlar uchun nisbatan qulay bo'lib, ularning mamlakat hududining qaerida bo'lishi chegaralanmagan, Jahon amaliyotida hududiy yondashuv ko'proq qo'llanilmoqda.

¹ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida talaba tomonidan shakllantirildi

Erkin iqtisodiy zonalar bir qator maqsadlarni ko'zlab tashkil etiladi. Zona tashkil etish maqsadiga qarab vazifalar belgilanadi. Bu haqida quyidagi bo'limda batafsil to'xtalib o'tamiz.

1.2. Erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish maqsadi, vazifalari va turlari

Jahon amaliyotidan ma'lumki, EIZ turli maqsadlarga erishish uchun tashkil etiladi.

Birinchi, EIZ tashkil etishdan maqsad milliy iqtisodiyotning xalqaro mehnat taqsimoti jarayoniga chuqur integratsiyalashuvini ta'minlash hisoblanadi. Raqobatbardosh eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish orqali valyuta tushumlarini ko'paytirishga erishiladi. Agar mamlakat qandaydir sabablarga ko'ra xorijiy tadbirkorlik kapitali uchun iqtisodiyotning erkinlashuvini ta'minlay olmasa, unda erkin iqtisodiy zona tashkil etish orqali xorijiy investorlarga qulay investitsiya muhitini yaratishi mumkin.

Ikkinchi, EIZ birinchi navbatda import o'rnini qoplovchi mahsulot ishlab chiqarish, ichki bozorni yuqori sifatli mahsulotlar bilan to'ldirish uchun tashkil etiladi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun hududda xorijiy kapital yordamida import o'rnini qoplovchi ishlab chiqarish barpo etiladi.

Uchinchi, EIZni maxsus tashkil etishda xalqaro mehnat taqsimotiga tovar ishlab chiqarish tarmoqlari bilan birgalikda turizm, madaniyat va sanatoriya-kurort sohaslarining integratsiyalashuvi ham ko'zda tutiladi.

To'rtinchi, EIZ ishlab chiqarishga xorijiy texnologiyalar va milliy ilmiy-texnik yangiliklarini tatbiq etish orqali butun milliy iqtisodiyotda undan foydalanishni nazarda tutadi.

Beshinchi, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun malakali kadrlar tayyorlash va o'qitishni nazarda tutadi.

Oltinchi, maxsus iqtisodiy hududlarni tashkil etish biror hudud yoki sohaning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishni ko'zda tutadi. Misol uchun AQSh va Buyuk Britaniyada maxsus iqtisodiy hududlar XX asrning 80-yillarida iqtisodiy turg'unlik holatidagi hududlarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish

uchun tashkil etilgan. Ushbu hududlarda ishbilarmonlarga mamlakatning boshqa hududlariga nisbatan moliya-viy imtiyozlar va xo'jalik faoliyati erkinligi beriladi.

Ushbu dasturlar xorijiy kapitalni jalb etishni rag'batlantirish uchun maxsus yo'naltirilgan. Shu maqsadda qoloq hududlarni rivojlangan hududlarga aylantirishda asosiy e'tibor xorijiy kapitalni jalb etishga qaratiladi.

Ettinchidan, ayrim mamlakatlarda erkin iqtisodiy hudud iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning mintaqaviy usuli sifatida qaraladi.

EIHLarni tashkil qilishdagi ***iqtisodiy maqsadlar:***

- tashqi savdo hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni jadallashtirish va kengaytirish;

- iqtisodiyotga xorij va milliy investitsiyalarni jalb qilish;

- milliy ishlab chiqarish raqobatbardoshligini va uning iqtisodiy samaradorligini ko'tarish;

- eksportni oshirish va import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish;

- mamlakat byudjetiga va regionga valyuta kirib kelishini oshirish.

EIHLarni tashkil qilishdagi ***ijtimoiy maqsadlar:***

- yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi ish bilan bandligini o'sishi;

- malakali xodimlarni, injenerlarni, xo'jalikda faoliyat yurituvchilarni va boshqaruvdagi kadrlarni jahon standartlariga javob beradigan darajada o'qitish va ularni tayyorlash;

- sanoat hamda iste'mol uchun mo'ljallangan yuqori sifatli mahsulot va xizmatlar bilan milliy bozorni to'yintirish;

- aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish;

- qoloq regionlar rivojlanishini, hudud chegarasida kamyob bo'lgan milliy resurslarni markazlashtirish hisobiga tezlashtirish.

EIHLarni tashkil qilishdagi ***ilmiy-texnik maqsadlar*** quyidagilarga qaratiladi:

- eng yangi xorij va mahalliy texnologiyalardan jadal foydalanish;

- ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlari natijalarini amalda qo'llashni tezlashtirish;

- dolzarb bo'lgan yo'nalishga ilmiy-texnik, shu jumladan xorij kadrlarini ham jalb qilish;

- ilmiy-texnik markazlar va venchur kompaniyalarining tajribalarini hamda ilmiy-tadqiqot yutuqlarini jalb qilish;
- foydalanilayotgan ishlab chiqarish quvvati samaradorligini oshirish.

Maxsus iqtisodiy zonalar o'zining umumiy maqsadlariga ko'p o'xshash, biroq, ularning funktsiyalari xilma-xil hisoblanadi Maxsus iqtisodiy zonalarining turli-tumanligi, ularning vujudga kelishi va rivojlanishi qator omillarga bog'liq.

Jahon amaliyotida erkin iqtisodiy zonalar xo'jalik faoliyatining ixtisoslashuviga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi: erkin savdo zonalar, sanoat-ishlab chiqarish zonalar, ilmiy-texnologik (texnoparklar, texnopolislar), offshor markazlar, iqtisodiy-ekologik va tor sohaga ixtisoslashgan zonalar (turistik) va kompleks zonalar (2-rasm).



2 - rasm. Erkin iqtisodiy zonalarining asosiy turlari¹

Erkin iqtisodiy zonalarining birinchi shakli erkin savdo zonasi (ESZ) hisoblanadi. Bu dengiz porti yoki aeroportda joylashgan yoki unga yaqin chegaralangan hudud bo'lib, milliy bojxona hududidan tashqarida bo'ladi. Bu erda saqlash, saralash va qadoqlash operatsiyalari amalga oshiriladi. Erkin

¹ Vaxabov A.V. va boshqalar. "Xorijiy investitsiyalar". T.: "Moliya". 2010 yil, 184-bet

savdo zonalarida mahsulotlar namoyishi va keyinchalik sotilishi ham ko'zda tutiladi. Bunda mahsulot faqat ulgurji savdo shaklida sotiladi. Chakana savdo faqat dengiz va havo kemalari ekipaji va yo'lovchilariga sotiladi, boshqa hollarda esa ta'qiqlanadi. Bunday zonalar katta investitsiyalar talab qilmaydi va tezda xarajatni qoplaydi.

Eksport-ishlab chiqarish zonolari. Eksport-ishlab chiqarish zonolari milliy bojxona hududi doirasidagi anklavlar sifatida tavsiflanadi. Mazkur hududlar, odatda, xalqaro portlarga yaqin joylashtiriladi va asbob-uskunalar, yig'ish uchun zarur ehtiyot qismlar va materiallar hududga iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda olib kiriladi. Import qilinayotgan mahsulot eksport-ishlab chiqarish zonasida qayta ishlanadi va qabul qiluvchi tomonning bojxona aralashuvisiz eksport qilinadi. Bojxona bojini to'lash faqat mahsulot qabul qiluvchi mamlakatning milliy bojxona hududiga kirib borsagina amalga oshiriladi. Bunday zona hukumatning alohida qarorlari asosida tashkil etiladi. Ushbu qarorda hududni boshqarishni shakllantirish masalalari, qo'shimcha imtiyozlarni joriy etish hamda boshqa tashkiliy masalalar aks ettiriladi. Eksport-ishlab chiqarish zonasini tashkil etish logistika, kommunal va ijtimoiy infratuzilmani yaratish, hudud chegaralarini o'rab olish va bojxona nazoratini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan katta miqdordagi moliyaviy xarajatlarni talab etadi.

Jahon amaliyotining ko'rsatishicha, o'rtacha kattalikdagi eksport-ishlab chiqarish zonasini tashkil etish va rivojlantirish uchun 50 mln. AQSh dollari miqdorida xarajat talab etiladi. Bunda mamlakatning boshqa hududlariga tovarlarni noqonuniy yo'l bilan olib kirish xavfi sanoat tipidagi erkin bojxona zonasiga nisbatan sezilarli darajada kamayadi.

Ilmiy-texnologik zonalar. Ilmiy-texnologik zonalarini (ITZ) erkin iqtisodiy zonalarining alohida guruhiga kiritish mumkin. Iqtisodiy adabiyotda ular texnologik parklar, texno-polislar, ilmiy parklar, texnologik markazlar, ishbilarmonlik markazlari deb ataladi. Bu hududlarning ajralib turadigan tomoni shundaki, mazkur hududda ilmiy va texnologik ishlab chiqarish faoliyati yirik ilmiy-tadqiqot markazlari va universitetlar atrofida joylashgan fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan, ilm ko'p talab qiladigan firmalar shaklida birlashadi. Bunday

hududlarni tashkil etishdan maqsad sanoatga materiallar, yuqori malakali mehnat resurslari, yangi zamonaviy texnologiyalarni etkazib berishni muvofiqlashtirish hisoblanadi. Ilmiy- texnologik zonalarning samaradorligini belgilovchi mezon – bu yangi texnologiya, yuqori malakali mutaxassislar va tadbirkorlarni bir joyga to'plash, ularni o'quv-tadqiqot va tijorat tashkilotlari tarmoqlari orqali qo'llab-quvvatlovchi mahalliy muhitning yaratilishidir. Ilmiy texnologik zonalar uch toifaga bo'linadi:

1. Innovatsion markaz - bu iqtisodiy tarkibi uncha katta bo'lmagan hudud doirasida kichik, yangi tashkil etilgan kompaniyalar uchun mo'ljallangan.

2. Ilmiy parklar - bu etarlicha katta hudud bo'lib, unda turli o'lcham va rivojlanish bosqichidagi fan sig'imkorligi yuqori, ilm ko'p talab qiladigan firmalar joylashgan bo'ladi. Ular unchalik katta bo'lmagan ishlab chiqarishni mahalliy ilmiy-tadqiqot markazlarining ilmiy-texnologik izlanishlari asosida yo'lga qo'yish imkonini beradi.

3. Tadqiqot parki - bu tarkib doirasida ilmiy-texnik yangiliklar texnik timsol bosqichigacha ishlab chiqiladi. Bunday parklarda kompaniyalar, ilmiy- tadqiqot va konstruktorlik tajriba idoralari birlashadi.

Ilmiy-texnologik zonalarning samaradorligini belgilovchi mezon - bu yangi texnologiya, yuqori malakali mutaxassislar va tadbirkorlarni bir joyda to'plash, ularni o'quv - tadqiqot va tijorat tashkilotlari tarmoqlari orqali qo'llab - quvvatlovchi mahalliy muhitning yaratilishidir.

Xizmat ko'rsatuvchi zonalar. Bu zonalarda turli xil xizmat turlari ko'rsatiladi. Eng keng tarqalgan xizmat turlari - bu bank, moliya va sug'urta xizmatlaridir. Bu kabi zonalar orasida offshor zonalar alohida guruhni tashkil etadi. Ularning EIZlardan farqi shundaki, unda ro'yxatdan o'tgan korxonaga hech qanday ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullana olmaydi.

**Jahon amaliyotida qo'llaniladigan maxsus iqtisodiy zonalarning
modellari: hajmi va imtiyozlari tarkibi¹**

Erkin zonalarning turlari	Maydoni (kv. km)	Bojxona chegaralarini mavjudligi	Bazaviy imtiyozlar	Asosiy mintaqalar/ mamlakatlar
Erkin savdo zonalari	3 – 5 gacha	Majburiy	Bojxona imtiyozlari	Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda yirik transport tugunlari
Sanoat-ishlab chiqarish zonalari:				
a) «nuqtali»	1 – 2 gacha	Yo'q	Bojxona imtiyozlari	Braziliya, Meksika, Puerto-Riko, Filippin, Karib havzasi
b) sanoat parklari	0,1 - 0,5 1 20	Majburiy emas	Bojxona imtiyozlari	Janubi-Sharqiy Osiyo, Meksika
Savdo ishlab chiqarish	1 - 4	Majburiy	Bojxona imtiyozlari	AQSh
Kichik biznes zonalari	0,01 - 3	Yo'q	Moliyaviy, soliq imtiyozlari	Hindiston, Yaqin Sharq, Argentina, Frantsiya
Ilmiy-texnologik (ilmiy-ishlab chiqarish)	2-20	Majburiy emas	Soliq imtiyozlari	Janubi-Sharqiy Osiyoning yangi industrial mamlakatlari
Offshor moliya markazlari	0,05-0,1	Yo'q	Soliq imtiyozlari	Karib havzasi, Gonkong, Singapur
Kompleks:				
a) maxsus iqtisodiy	16 - 330	Majburiy	Soliq, bojxona, moliya	Xitoy
b) "Manaus" zonasiga o'xshash alohida re-jimga ega hududlar	80 dan yuqori	Hudud qismlari uchun majburiy	Soliq, bojxona, moliya	Braziliya («Manaus»), Argentina («Olovli er»)
v) alohida iqtisodiy zonalari	Ma'muriy-hududiy tuzilmalar doirasida (shahar, tiiman)	Alohida zonada joylashgan kichik (lokal) hududlar uchun majburiy	Soliq, bojxona, moliya	Rossiya (Kaliningrad viloyati)

Jadvaldan ko'rinadiki, EIZ hajmi jihatdan o'rtacha 0,01 kv. km. dan 330 kv. km. gacha bo'lgan hududlarni qamrab olishi mumkin. Jahon amaliyotining

¹ Vaxabov A.V. va boshqalar. "Xorijiy investitsiyalar". T.: "Moliya". 2010 yil, 187-bet

ko'rsatishicha, EIZni barpo etishdagi asosiy afzallik xorijiy investorlar uchun yaratiladigan imtiyozlar va ularning katta hududlarni egallamasligi hisoblanadi. EIZda asosan bojxona, soliq va moliyaviy faoliyat bilan bog'liq imtiyozlar qo'llaniladi. Erkin savdo zonalari, savdo ishlab chiqarish, maxsus iqtisodiy zonalar va alohida iqtisodiy zonalarda bojxona chegaralari bo'lishi kerak. Erkin savdo zonalari yirik transport tugunlari, asosan havo va suv transportlari serqatnov bo'lgan mamlakatlarda tashkil qilinadi. Sanoat ishlab chiqarish zonalari, asosan rivojlanayotgan zonalarda tashkil etiladi.

Offshor yurisdiksiyaning asosiy belgisi soliqqa tortishdagi imtiyozlar hisoblanadi. Bu erda buxgalteriya hisoboti va audit bo'yicha talablar kamaytiriladi, bojxona to'lovlari va savdo cheklovlari butunlay yoki qisman olib tashlanadi. Offshor zonalarda mijoz haqidagi ma'lumotlar sir tutiladi.

Kompleks erkin iqtisodiy zonalar. Amaliyotda bir funktsiyani bajarishga ixtisoslashgan hudud mavjud emas. Eng ko'p tarqalgan hududlarga savdo, bojxona, sanoat, tadqiqot funktsiyalarini bajaruvchi kompleks hududlar kiradi. Ular turli funktsiyalarni bajaradilar va investorlarning turli xil iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishlariga imkon beradilar. Shu sababli ularni tashkil etishda ustuvor funktsiyalarni belgilab olish lozim. Aynan shu kabi hududlarda yangi ma'muriy- hududiy birlik tashkil etilishi mumkin.

Hudud chegaralari va faoliyat yuritish tartibiga qarab erkin iqtisodiy zonalar ikki turga bo'linadi: anklav (yopiq) va integratsion. Anklav EIZda ishlab chiqarilgan barcha mahsulot eksportga chiqarishga yo'naltirilgan bo'lib, maqsadi erkin almashinadigan valyutada daromad olishga qaratilgan bo'ladi. Integratsion zonalar - milliy va jahon iqtisodiyoti bilan uzviy bog'langan bo'lib, erkin faoliyat yuritish tartibiga ega. Xalqaro mehnat taqsimotiga keng jalb qilingan, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar uchun xos bo'lgan hudud hisoblanadi.


Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, erkin iqtisodiy zonalarning turi juda ko'p. O'zbekistonda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar va ularning me'yoriy-huquqiy asoslari haqida quyidagi bo'limda ko'rib chiqamiz.

1.3. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi va ularning huquqiy asoslari

O'zbekistonda EIZni tashkil etish iqtisodiyotni modernizatsiyalash va texnologik jihatdan qayta qurish jarayonidagi quyidagi muhim ustuvor vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi:

- hududlarni rivojlantirish;
- yangi ishchi o'rinlarini yaratish; iqtisodiyotning noan'anaviy tarmoqlarini rivojlantirish;
- ishlab chiqarish jarayoniga ilmiy ishlanmalarni joriy etish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb etish asosida raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilish.

Mamlakatimizda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish va ular faoliyatiga doir munosabatlar 1996 yil 25 aprelda qabul qilingan "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan tartibga solinadi. Bu Qonun erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish tartibi, ularning turlari, mazkur zonalar ishtirokchilariga qo'shimcha imtiyoz va preferentsiyalar berish mexanizmini o'zida aks ettiradi. Unda "...Erkin ishlab chiqarish zonalari maqsadli ijtimoiy-iqtisodiy dastur bo'lib, yangi ishlab chiqarish munosabatlari asosida alohida olingan hududda tadbirkorlikni rag'batlantirish, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga xorijiy investitsiyalarni jalb etish, istiqbolli texnologiyalarni erkin raqobat, ma'muriy-iqtisodiy mustaqillik va o'zini o'zi mablag' bilan ta'minlash tamoyillari asosida joriy etilishidir. Bu maqsad uchun o'sha hududda joylashgan korxonalarini ijaraga olish, kooperativ, qo'shma va chet el korxonalarini qurish va ularni ekspluatatsiya qilish evaziga erishiladi", deb ta'kidlanadi.



3 - rasm. O'zbekistonda tashkil etilgan EIZlar va ulardagi imtiyozlar tizimi³

Mamlakatimizda sekin-asta EIZlar tashkil etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2 dekabrda "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, Navoiy

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmonlari asosida talaba tomonidan shakllantirildi

shahrining xalqaro aeroporti hududi yaqinida "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zona (EIZ) tashkil etilgan bo'lsa, 2012 yil 13 apreldagi "Angren" maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, Toshkent viloyatida maxsus industrial zona (MIZ) tashkil etildi. Bundan tashqari 2013 yil 18 martdagi ""Jizzax" maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi farmoniga ko'ra, Jizzax viloyatida Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanida filiali bo'lgan maxsus industrial zona (MIZ) tashkil etildi. "Angren" va "Jizzax" MIZda amal qiladigan imtiyozlar ham TTXIlarni jalb qilishda kuchli rag'batlantirish tizimiga ega bo'ldi.

Ushbu hududlarning faoliyat ko'rsatish muddati 30 yilni tashkil etib, keyinchalik uzaytirilishi mumkin. Mazkur hududlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadlar belgilab olindi va ularga kiritiladigan investitsiyalar miqdoriga qarab amal qiladigan alohida soliq, bojxona imtiyozlari belgilab qo'yildi (3 - rasm). "Navoiy" EIZda beriladigan imtiyozlardan yana biri, EIZda ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar EIZ faoliyat ko'rsatadigan butun muddatga eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarish maqsadida mamlakatga olib kelinayotgan asbob- uskunalar, xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar bojxona to'lovlaridan ozod qilinadi. Agar O'zbekistonning ichki bozorlarida sotish uchun mo'ljallangan mahsulotni ishlab chiqarishni ko'zda tutib, xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar mamlakatga olib kirilsa, bunda bojxona to'lovlari, agar qonun hujjatlarida boshqa imtiyozli tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, belgilangan stavkalarining 50%i miqdorida undiriladi, bunda ularni to'lash muddati 180 kungacha kechiktirilishi mumkin.

"Navoiy" EIZda faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlariga alohida huquqiy tartib, ya'ni ularning hududga kirishi, hududda bo'lishi va chiqib ketishi, shuningdek, ular tomonidan mehnat faoliyatini amalga oshirishlari uchun ruxsatnomalar olishning soddalashtirilgan tartibi joriy etildi. Bu imtiyozlarning barchasi faqat EIZ hududida faoliyat ko'rsatayotgan va EIZ direktsiyasi tomonidan ro'yxatga olingan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun taalluqli ekanligi belgilab qo'yildi. Imtiyoz EIZ rezidentlari tomonidan kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiya miqdoriga qarab beriladi. Xalqaro intermodal logistika markazining tashkil etilishi undan nafaqat Janubi-Sharqiy Osiyoni Evropa bilan bog'laydigan

qit'alararo transport-ekspeditsiya uzeli sifatida foydalanish imkonini beradi. Ayni paytda u Navoiy viloyati va qo'shni hududlarda yangi, yuksak texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish uchun zarur sharoitlar yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2008 yil 2 dekabrda qabul qilingan "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni viloyat, xususan, Navoiy shahrining ishlab chiqarish salohiyatini yanada mustahkamlash, transport va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish, yuqori texnologiyalarni joriy etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Ushbu hujjatda jahon standartlariga javob beradigan va dunyo bozorlarida talab qilinadigan mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydigan, zamonaviy yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni tashkil etish uchun xorijiy investitsiyalarni, eng avvalo, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish bo'yicha qulay shart-sharoitlar yaratish, shuningdek, Navoiy viloyatining sanoat salohiyatini, ishlab chiqarish, transport-tranzit va ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadlari ko'zda tutilgan. Ushbu Farmonga ko'ra, "Navoiy" EIIZ faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining bir qator Qarorlari qabul qilindi.

"Navoiy" EIIZda ro'yxatdan o'tgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga quyidagilar ruxsat etiladi: ular o'rtasida tuzilgan shartnomalar hamda bitimlar bo'yicha hisob-kitob va to'lovlarni EIIZ hududida xorijiy valyutada amalga oshirish; O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan etkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ish va xizmatlarning haqini erkin almashtiriladigan valyutada to'lash; eksport va import qilinadigan tovarlar uchun haq to'lash hamda hisob-kitob qilishning ularga qulay shartlari va shakllaridan foydalanish.

"Navoiy" EIIZni yaratish kontseptsiyasi quyidagi to'rtta blok – xabni sinergiya qilishga asoslanadi: transport-logistika, industrial, innovatsion, turistik va madaniy-rekreatsion. Loyihani uch bosqichda amalga oshirish rejalashtirilgan va har bir bosqichda 500 gektargacha maydon o'zlashtiriladi. Bundan tashqari, Navoiy shahri aeroportida to'liq rekonstruktsiya va modernizatsiya ishlari amalga

oshirildi. Natijada xalqaro andozalarga mos 4 kilometrdan ko'proq uchish-qo'nish yo'lagi qurib bitkazilib, zamonaviy boshqarish tizimi bunyod etildi, murakkab ob-havo sharoitida ham turli darajadagi, og'irlikdagi havo kemalarini qabul qilish va uchirish imkoniyatlari yaratildi. Ushbu aeroportdagi qitalararo intermodal logistika markazi esa Hamdo'stlik davlatlarida yagona bo'lib, bu erda yuklarni tezkorlik bilan tushirish, ortish, taqsimlash, maxsus omborlarga joylashtirish mumkin. Osiyodan Evropaga, Evropadan Osiyoga jo'natiladigan yuklar global yuk tashish tarmog'ining muhim bo'g'iniga aylanadigan ana shu markazdan o'tadi. Shuningdek, qulay geografik joylashuv yuklarni O'zbekiston orqali tashishda vaqt va tashish xarajatlarini iqtisod qilish imkonini yanada oshiradi. Jumladan, yuklar Janubi-Sharqiy Osiyodan Evropaga Dubay orqali emas, balki Navoiy orqali tashilsa, masofa 1000 kilometrga, vaqt esa 1,5 soatga qisqaradi va har bir samolyotdan 15 tonna yoqilg'i tejab qolinadi. Bu Navoiy shahri aeroportini global logistika tarmog'iga integratsiyalash imkonini berdi.

Umuman olganda, mamlakatimizdagi "Navoiy" EIIZ, "Angren" MIZ, "Jizzax" MIZlarni tashkil qilish bo'yicha dastlabki huquqiy asos yaratilgan. Ularni muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun turli xom ashyo resurslarining mavjudligi va ularni 30 foizdan kam bo'lmagan mahalliyashtirish darajasida chuqur qayta ishlash imkoniyati; ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish bilan bog'liq yirik bozorlarning mavjudligi; transport infratuzilmasining rivojlanganligi; inson salohiyatining yuqoriligi; hududda yuqori texnologiyalarni jalb etish orqali diversifikatsiyalangan ekologik toza sanoat bazasini shakllantirish imkoniyati kabi omillar mavjud.

II-BOB. Jahon iqtisodiyotida erkin iqtisodiy zonalarning tashkil etilishi amaliyoti tahlili


2.1. Rivojlangan davlatlarda tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar faoliyati tahlili

Turli mamlakatlar iqtisodiyotida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini tahlil qilish orqali respublikamizda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish istiqbollari belgilash mumkin. Shu sababli mazkur bob orqali EIZlarni tashkil etish bo'yicha xorij tajribasi bilan tanishib chiqamiz.

EIZlar XX asrning ikkinchi yarmida iqtisodiyotda eng ko'zga ko'ringan institutsional innovatsiyalardan biri sifatida qayd etilgan. O'tgan asrning 90-yillarida faqat monomilliy eksport ishlab chiqarish hududlarining o'zi 500 dan ortiq edi. O'zining jozibadorligi bilan ajralib turuvchi bu hududlarni tashkil etish tajribasini dunyo mamlakatlari misolida ko'rib chiqish va o'rganish mustaqil respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar uchun foydalidir. EIZlarni tashkil qilinishi hududning rivojlanishiga va ishlab chiqarishning tarmoq tizimini takomillashtirishga; mulkchilikning turli shakllariga asoslangan xo'jalik yuritishning yangi usullarini sinab ko'rishga; ishlab chiqarishga ilmiy ishlanmalarni, mehnatni tashkil qilishning yangi usullarini joriy qilishga; xizmatlar tizimini rivojlantirishga; sanoat korxonalarini mahsulotlarini eksportini oshirishga imkon yaratadi.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda EIZlar xalqaro mehnat taqsimotiga keng miqyosda jalb etilgan. Bu xususiyat mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasi va xarakteriga bog'liq. Chunki bu mamlakatlarda iqtisodiyotining integratsiyalashuv darajasi juda yuqori hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda EIZlarning barcha turlari mavjud bo'lib, erkin savdo hududi hamda erkin ilmiy-texnik zonalar nisbatan keng tarqalgan va rivojlangan.

Erkin iqtisodiy zonalar faoliyat yuritayotgan 123 ta mamlakatlar orasida eng ko'pi AQShga to'g'ri keladi. EIZ xo'jalik faoliyati asosan avtomobil yig'ish bo'yicha ishlab chiqarish va mahalliy yoki xorijiy ashyolar asosida boshqa tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish hisobiga kengaymoqda. AQShda tashqi savdo zonalarini, tadbirkorlik zonalarini va texnoparklar ko'plab tashkil etilgan.



4- rasm. AQShda tashkil etilgan asosiy EIZ turlari¹

Tashqi savdo zonalari. Zamonaviy TSZlarda turli tarzdagi xizmatlar ko'rsatiladi. Mazkur hududlarga keltirilgan tovarlar nafaqat omborxonalarda saqlanadi, turlarga ajratiladi, qadoqlanadi, balki mahsulot qayta ishlanishi, ba'zi mahsulotni import qilingan yoki mahalliy komponentlar yordamida yig'ish, hattoki, hududga olib kelinadigan yoki shu erning o'zida yaratiladigan mahsulot bazasida ishlab chiqarishning alohida turini tashkil etish mumkin. TSZlar dengiz portlari, aeroportlarda yoki ularga yaqin joyda tashkil etiladi. Birinchi TSZlari AQShda 1934 yilda "Tashqi savdo zonalari to'g'risida"gi Qonun asosida yaratildi. 1950 va 1991 yillarda Qonunga, bu hududlar faoliyatini kengaytirish va diversifikatsiyasini kuchaytirishga qaratilgan, jiddiy o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritildi. 1934 yildagi Qonunga muvofiq AQShning Savdo vazirligi qoshida tashqi savdo zonalari bo'yicha Qo'mita tashkil etilgan va uning vakolatiga hududlar tashkil etish to'g'risida arizalarni ko'rib chiqish va tasdiqlash hamda yaratilgan hududlar boshqaruvchilarining, ya'ni ma'muriy kengashlarining faoliyatini nazorat qilish belgilangan.

3- jadval

AQShdagi tashqi savdo zonalari¹

¹ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida talaba tomonidan shakllantirildi
26

Tashkil etilishi	1934 yildan beri «Tashqi iqtisodiy zonalar to'g'risida»gi Qonun asosida mamlakatning barcha shtatlarida
Soni	500dan ortiq
Yaratilish sababi	<ul style="list-style-type: none"> - qulay geografik joylashuv (xalqaro transport yo'llariga, yirik sanoat markazlariga, chegaraga yaqinlik va b.q.); - rivojlangan infratuzilmaning mavjudligi (yo'llar, omborlar, yuk terminallari, zarur texnika, energiya, suv va issiqliq bilan ta'minlanganlik va h.k.)
Maqsadi	<ul style="list-style-type: none"> - Hududlarning iqtisodiy faolligini kengaytirish; - AQShni jahon savdo tizimiga chuqurroq jalb qilish; - ishsizlik darajasini pasaytirish
Turlari	<ol style="list-style-type: none"> 1. Umumiy maqsadlardagi zonalar (UMZ) 2. Maxsus maqsadlardagi subzonalar (MMSZ)
Imtiyozlar	<ul style="list-style-type: none"> - ichki boj va soliqlar mahsulot ichki iste'mol uchun boshqa hududga olib kirilgandagina to'lanadi; - hudud ichida joylashgan kompaniya va shaxslarning xususiy mulki mahalliy va davlat soliqlaridan ozod etiladi; - hududdan uchinchi davlatlarga eksport qilinayotgan mahsulot bojxona bojlaridan, ichki soliqlardan va kvotalashdan ozod etiladi; - TSZlaridan mahsulot eksport qilingan paytida bojxona jarayoni engillashtiriladi; - TSZdan AQSh hududiga import qilish jarayonida importer bojni yoki mahsulot uchun, yoki mahsulotda ishlatilgan xorijiy komponentlar uchun to'laydi.

Umumiy maqsadlardagi zonalar AQSh bojxonasi vakolatidan tashqari faoliyat

ko'rsatadi. Ular, odatda port yoki aeroportlar atrofida tashkil qilinadi. Asosiy faoliyati tovarni saqlash, xillarga ajratish, o'rash va qo'shimcha qayta ishlashsiz jo'natishdan iborat. Ba'zi hollarda eksport qilish maqsadida xorijiy tovarlarni biroz qayta ishlashga yo'l qo'yiladi. Shu nuqtai nazardan, funktsional maqsadlariga ko'ra ular erkin bojxona hududlarining o'zida aks ettiradi. Ko'pincha umumiy maqsadlardagi zonalar keyinchalik maxsus zona (subzona) yaratish uchun tashkil qilinadi. Maxsus maqsadlardagi subzonalar umumiy maqsadlardagi zonalarga bo'ysunadi, lekin undan tashqarida joylashgan bo'ladi.

4-jadval

AQShdagi ESZlarining asosiy ko'rsatkichlari, mlrd. dollarda¹

	2005 y.	2006 y.	2007 y.	2008 y.	2009 y.	2010 y.
Qayta ishlash uchun kiritilgan xom ashyolar	409,8	491,4	501,9	692,6	430,6	534,3
Umumiy MZ	69,0	72,7	68,7	74,9	75,9	81,0
Maxsus MSZ	340,8	418,8	433,2	617,7	354,7	453,3
Maxsus MSZ %	83	85	86	89	82	85
Mamlakat ichkarisidan kiritilgan xom ashyolar	256,0	301,9	300,3	396,2	248,6	311,2
Umumiy MZlar	46,1	45,1	38,4	40,6	37	41,7
Maxsus MSZ	209,9	256,9	261,9	355,6	211,6	269,5
Mamlakat tashqarisidan kiritilgan xom ashyolar	153,8	189,5	201,5	296,3	182	223,1
Umumiy MZlar	22,9	27,6	30,2	34,3	38,8	39,3
Maxsus MSZ	130,9	161,9	171,3	262	143,2	183,8
Eksport	23,3	30,4	31,6	40,5	28,2	34,8
Umumiy MZlar	7,1	9,7	9,2	11,6	6,7	9,2
Maxsus MSZ	16,2	20,7	22,4	28,9	21,5	25,6
TSZlardagi jami loyihalar soni	251	256	254	253	253	254

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan davrda barcha ko'rsatkichlarning deyarli o'sishi kuzatilgan. Masalan, qayta ishlash uchun

¹ 70th Annual report of the Foreign-Trade Zone Board to the Congress of the U.S. 2009.

kiritilgan xom ashyolar 2010 yilda 2005 yilga nisbatan 124,5 mlrd. doll.ga oshgan. Shundan mamlakat ichkarisidan kiritilgan xom ashyolar 55,2 mlrd. doll.ga, mamlakat tashqarisidan kiritilgan xom ashyolar esa 69,3 mlrd. doll.ga ko'paygan. Qayta ishlash uchun xom ashyolarning 85%i maxsus maqsadlardagi subzonalarga kiritilgan.

Hozirgi kunda jami 253ta umumiy maqsadlardagi zona va taxminan 400ta subzonalar faoliyat ko'rsatmoqda. ESZlarida qayta ishlangan tovarlar qiymati 490 mlrd. AQSh dollaridan iborat bo'lib, 30 mlrd. dollarlik tovar eksport qilingan. Bu hududlarda ish bilan ta'minlanganlar soni 340 ming kishini tashkil etadi.¹

Har bir portda hech bo'lmaganda bitta tashqi savdo zonasi tashkil qilingan. Agar port bittadan ortiq shtat bilan chegaradosh bo'lsa, u holda har bir chegaradosh shtatda alohida tashqi savdo zonasi tashkil etiladi. Agar suv bilan ajratilgan ikkita shahar bitta portdan foydalansa, tashqi savdo zonasi bu shaharlarning har birida tashkil qilinadi. Quyida keltiriladigan jadvalda AQShdagi ESZlarining asosiy ko'rsatkichlari umumiy maqsadlardagi zonalar va maxsus maqsadlardagi zonalar bo'yicha ko'rib chiqiladi. Unda qayta ishlash uchun kiritilgan xom ashyolar jami summasi va uning tarkibida mamlakat ichkarisidan va tashqarisidan kiritilgan xom ashyolar, shuningdek, bu zonalardagi eksport hajmi va amalga oshirilgan loyihalar soni tahlil qilingan. Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha 2008 yilga qadar o'sish kuzatilgan. So'ngra jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi ta'siri natijasida 2009 yilda pasayib, ko'rilgan chora tadbirlar natijasida 2010 yilda yana o'sish kuzatilgan.

Tadbirkorlik zonalari tashqi savdo bilan bevosita bog'liq bo'lmagan erkin iqtisodiy zonalar toifasiga kiradi. Bu erda erkin hududning boshlang'ich tushunchasi yo'qotiladi, chunki bojxona imtiyozlari ikkinchi darajali yoki umuman yo'q bo'lib qoladi.

¹ 70th Annual report of the Foreign-Trade Zone Board to the Congress of the U.S. 2009.
29

AQShdagi tadbirkorlik zonalarining asosiy xususiyatlari¹

Tashkil etish asosi	Hukumat dasturlari
Birinchi tadbirkorlik zonasi	1980 yil Florida shtatida
Maydoni	2,5-5 kv.km., ayrim hollarda 13 kv.km.
Maqsadi	yuqori ishsizlik darajasiga ega shaharlarda tadbirkorlikni rivojlantirish
Turlari	Federal, mahalliy yoki shtat miqyosida
Imtiyoz turlari	Soliq, moliyaviy va ma'muriy rag'batlantirishlar

AQShda tadbirkorlik zonalarini (TZ) yuqori ishsizlik darajasiga ega shaharlarning iqtisodiy nuqtai nazaridan qoloq hududlarida, asosan shaharlarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilarga ko'proq erkinlik va moliyaviy imtiyozlar berish orqali, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jonlantirish maqsadida vujudga kelgan. Ularning chegarasi belgilanmagan va faqat ularda joylashgan kompaniyalar maqomi bilan ajralib turadi. Barcha turdagi TZ turli miqyoslarda AQSh ijroiya hokimiyati tomonidan qabul qilinadigan hukumat dasturlari asosida tashkil etiladi va faoliyatini amalga oshiradi. Biroq, har bir shtat o'z ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zining hududlar tuzilishi va faoliyatini tartibga soluvchi qonunchiligiga ega.

Texnologik parklar fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi shakli, innovatsion faoliyat yuritish va yangi texnologiyalar yaratish bilan band bo'lgan venchurli firmalar tuzish joyi sifatida e'tirof etilgan. Ularning tuzilishi biror bir hukumat organining ruxsatini talab qilmaydi. Texnologik parklar dunyo bozorida AQShning raqobatbardoshligini oshirishda va yuqori texnologik ishlab chiqarish bo'yicha milliy bazani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. AQShda texnoparklarning ikki turi mavjud: ayrim shaxslar va xususiy tashkilotlar tashabbusi bilan tashkil etilgan texnoparklar hamda alohida shtatlar hukumatlari ko'rsatmasi bilan tuzilgan texnoparklar. Ikkinchi turdagi parklar hozirda ham tuzilib kelinmoqda, biroq ular orasida eng mashhur va samarali faoliyat yurituvchi

¹ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida talaba tomonidan shakllantirildi

texnoparklar birinchi turga kiradi. Ular ichida eng mashhurlari: Santa-Klara shahridagi (Kaliforniya), Stenford universiteti yaqinida joylashgan «Silikon vodiysi» texnoparki; Massachusetts texnologik instituti va Garvard universiteti yaqinida joylashgan «Boston yo'li 128» texnoparki; hamda uchta universitet (Dyuk universiteti, Shimoliy Karolina universiteti va Shimoliy Karolina shtati universiteti) joylashgan hududning markazida tashkil etilgan «Shimoliy Karolina park-uchburchagi» texnoparki. Aytib o'tilgan uchta texnopark nafaqat AQShning boshqa hududlarida, balki xorijda ham texnopark tuzishda model sifatida qo'llaniladi.

G'arbiy Evropada ESZ miqdori ko'proq. Ular bu erda XIX asrdan avvalroq paydo bo'lgan. XXI asr boshida ularning soni 120tani tashkil etdi. Jumladan, Germaniyada yirik ESZ Bremen, Bremerxaven, Emden, Gamburg va Kil portlarida joylashgan. Bu zonalarda tovarlarni yuklash, bo'shatish, qayta yuklash, saqlash, ajratish, belgilash va ularning sotuvi amalga oshiriladi, tashqi savdoga tegishli turli xizmatlar ko'rsatiladi. Ularning hududida alohida preferentsial rejim asosan zona hududida tovarlarni ishlash va qayta ishlash natijasida yuzaga keladigan bojxona to'lovlari, qo'shimcha qiymat solig'i bekor qilinishi orqali tashkil qilinadi.

Ispaniyada 4ta EIZ mavjud, jumladan 1929 yili ichki va tranzit savdoni rivojlantirish, tashqi savdo operatsiyalarni faollashtirish va eksportga yo'naltirilgan sanoatni rivojlantirish uchun «Kadis» EIZ tuzilgan. EIZ Ispaniyaning Atlantik qirg'og'ida joylashganligi uning Amerika, Shimoliy Afrika, Atlantikaning va O'rta er dengizining Evropa davlatlari, hamda Yaqin va O'rta Sharq davlatlari bilan aloqalar rivojlanishini keltirib chiqaradi. Kadis hududidagi qirg'oq Ispaniyani barcha yirik savdo markazlar bilan bog'lovchi yuk va passajir tashuvchi, dengiz liniyalariga xizmat qiluvchi zamonaviy port qurilmalariga ega. Bu hududda xalqaro savdo markazi, ofis markazi, ochiq va yopiq ombor va maydonchalar, sanoat korxonalar, port xizmatlari, konteyner-muzlatgichlar terminali joylashgan. ESZ EI bojxona hududining qismi hisoblanadi, shuning uchun uchinchi davlatlar tovarlari uchun quyidagi bojxona va soliq imtiyozlari mavjud: agar tovar ESZda bo'lsa import bojlardan ozod etish; zona hududiga olib kelinayotgan tovarlarga

maxsus soliqlardan ozod etish; QQSdan ozod etilish va ESZga olib kirilayotgan tovarlar uchun va bu tovarlarni ishlash bilan bog'liq xizmatlar uchun uning qaytarilishi; El savdo siyosat choralari qo'llamaslik; tovarning kelib chiqishi, miqdori, ishlab chiqilgan joyi va ishlatilishidan qat'iy nazar uni olib kirish va uni ESZda cheksiz vaqt mobaynida bo'lish imkoniyati. «Kadis» ESZ muvaffaqiyatli rivojlanib, Ispaniyaning ichki va tashqi savdosini rivojlanishiga hissa qo'shmoqda.

1990 yillar boshida Ispaniyada «Barselona» kompleks EIZi tuzilgan. Davlatdagi eng yirik zona deb hisoblanuvchi mazkur EIZ o'z ichiga sanoat poligonini (zonasini), erkin bojxona omborini va erkin savdo zonasini oladi. Bu kompleksni boshqarish uchun Barselona EIZ konsortsiumi tashkil etilgan. Konsortsium uchta EIZ faoliyatini boshqarish va hudud chegarasidagi erlarni korxonalar va firmalarga ijaraga berish bilan birga, EIZdagi loyihalarni amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Irlandiyada 1959 yili Shennon aeroporti xalqaro tadbirkorlik hududiga aylantirilgan. Qulay transport aloqalari va milliy sarmoyadorlar uchun qilingan qator imtiyozlar, jumladan: xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlarni bojsiz olib kirish xuquqi, ishlab chiqarish korxonalarini va omborlar uchun past ijara to'lovlari, sarmoya kiritish jarayonlarining soddalashtirilishi va qulay maishiy sharoitlar tufayli Shennon zonasi tez orada jiddiy muvaffaqiyatlarga erishdi. ESZda ishchining o'rtacha yillik daromadi 50-70 ming dollarni tashkil etadi. Irlandiya jami eksportining hajmi mamlakat YalMning 70%ini tashkil etadi va bu Elning boshqa kichik davlatlaridan 2 marta yuqori ko'rsatkich⁴.

1980 yili Portugaliyada tuzilgan. "Santa-Mariya" kompleks hududi 40 ga maydonni egallaydi. Zonaning ixtisosligi ko'p qirrali: uning hududida sanoat, tijorat va moliyaviy faoliyatning, shuningdek offshor zonalar, barcha turlariga ruxsat etilgan. "Santa-Mariya" EIZda ro'yxatdan o'tgan korxonalar quyidagi imtiyozlarga ega: barcha bojxona rasmiyatchiliklari soddalashtirilgan; tovarlarni erkin olib kirish va olib chiqish; reeksport qilinayotgan tovarlarning bojlardan ozod etilgan; aksiyadorlik jamiyatlar va korxonalar daromad solig'idan hamda

⁴ Hamroev H.R. Zonal siyosat: metodologiya xorijiy tajriba va qo'llash yo'nalishlari.-T.: Fan, 2008. - 352 b.

patentlar, litsenziyalar, tovar belgilarni berishda daromad solig'idan ozod etilgan; chet el kompaniyalari kapitali erkin harakat qilishiga kafolat berilgan; kasbiy tayyorlash uchun subsidiyalar (orollari fuqarolari uchun 100%gacha); ijara subsidiyalari (5 yil muddatga xarajatlar 50%gacha); qurilish subsidiyalari (ishlab chiqarish korxonalarini qurilishida xarajatlarning 50%gacha); uskuna olish uchun subsidiyalar (ishlab chiqarish korxonalarini uchun xarajatlarning 50%gacha).

G'arbiy Evropada tadbirkorlik zonalari faoliyat yuritmoqda. Tadbirkorlik zonalarini tuzishdan maqsad iqtisodiy qoloq hududlarda milliy tadbirkorlarga moliyaviy-kredit va soliq imtiyozlar berish orqali xo'jalik faoliyatini jonlantirishdir. Bu zonalardagi imtiyozlar darajasi, odatda, bevosita tadbirkorlar tomonidan tashkil etiladigan ish joylariga bog'liq. Tadbirkorlik hududlari Buyuk Britaniya va Frantsiyada mavjud.

G'arbiy Evropa davlatlarida ilmiy-sanoat parklar, ilmiy parklar, texnoparklar sifatida ma'lum bo'lgan texnik-tadbiq etish hududlari keng tarqalgan. Ularda printsipliy yangi texnologiyalar, materiallar va tovarlar ishlab chiqish olib boriladi, ilm talab qiluvchi mahsulotning kam miqdorli eksperimental ishlab chiqarilishi amalga oshiriladi.

G'arbiy Evropada offshor markazlari ham keng tarqalgan. Ular xorij tadbirkorlarini o'zining qulay valyutaviy-moliyaviy qonunchiligi, soliqqa tortishning imtiyozli xarakteri, bank va tijorat sirlarining yuqori darajadali bilan o'ziga jalb qiladi. Xalqaro offshor biznesini yurituvchi etakchilarga Men, Buyuk Britaniyadagi Gernsi va Djersi, Kipr, Vengriya, Irlandiya, Lixtenshteyn, Lyuksemburg, Shveytsariya Malta, Monako, va boshqalar kiradi. Offshor biznesi bank va sug'urta faoliyatini, ko'chmas mulk operatsiyalarini, eksport-import operatsiyalarining ko'pgina turlarini, konsaltingni o'zida mujassamlashtiradi.

2.2. Rivojlanayotgan davlatlarda erkin iqtisodiy zonalar faoliyati tahlili

Rivojlanayotgan mamlakatlarga keladigan bo'lsak, yangi industrial mamlakatlarda erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilish sezilarli darajada foyda keltirdi. Koreya Respublikasida, Singapur, Tayvan, Syangan, Malayziya, Filippin, Braziliya va Meksika kabi davlatlarda tashkil qilingan erkin iqtisodiy zonalar iqtisodiy o'sishning umumiy strategiyasi bo'lib hisoblanadi. Osiyo va Afrikaning qator rivojlanayotgan mamlakatlari uchun erkin iqtisodiy zona, ularning iqtisodiy rivojlanishining muhim mexanizmi bo'la olmadi. U erdagi erkin iqtisodiy zonalarda engil-sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish, uy-ro'zg'or elektronikasi, ba'zan, mahalliy xom ashyoni qayta ishlash bo'yicha og'ir sanoat sohalarida faoliyat yuritilgan. Lekin u erdagi faoliyat boshqa zonalardan territorial ajralib, go'yoki anklav kabi bo'lgan. Shunday bo'lsa ham erkin iqtisodiy zona bu mamlakatlar rivojlanishining tezlashishiga, ularning xalq xo'jaligi bilan integratsiyalashuviga yordam beradi. Shuning uchun ham rivojlanayotgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy zonalar soni ortib bormoqda. O'tgan asrning boshida faqatgina eksport-ishlab chiqarish zonalarining soni 480 tani tashkil qildi, ularda esa 4 mln. kishi ish bilan band. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi EIZni tashkil etish tajribasiga ko'ra, bu mamlakatlarda ko'proq eksport-ishlab chiqarish zonalar tarqalganligini ko'rish mumkin. Bu narsa EIZning rivojlanayotgan mamlakatda bajarayotgan vazifalaridan kelib chiqadi: mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash; iqtisodiyotning yuqori darajada sanoatlashuviga erishish; mamlakatning xalqaro mehnat taqsimoti, jahon xo'jaligi, xalqaro savdodagi o'rnini mustahkamlash va hokazo.

Ko'pincha, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning asosiy kontseptsiyasi sifatida EIZlarni barpo etish qabul qilinadi. Jahon tajribasining ko'rsatishicha, bunday strategiya o'zini oqladi. Rivojlangan mamlakatlarda barpo etilgan eksport ishlab chiqarish zonalar ko'proq ichki bozor uchun ishlasa, rivojlanayotgan mamlakatlardagi bunday zonalar faoliyati tashqi bozor uchun yo'naltirilgan bo'ladi.

**Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda tashkil qilingan
EIZlarning farqli jihatlar¹**

Ko'rsatkichlar	Rivojlangan mamlakatlar	Rivojlanayotgan mamlakatlar
Tashkil etiladigan EIZning asosiy turlari	Erkin savdo zonalari, Texnoparklar	Eksport ishlab chiqarish zonalari
Maqsadlari	Tashqi iqtisodiy aloqalarni yanada kuchaytirish	Xorij kapitalini jalb qilish
EIZlar jalb qilinayotgan kapital tarkibi	Ko'proq milliy xususiy kapital	Ko'proq xorijiy xususiy kapital

Shuningdek, rivojlanayotgan mamlakatlardagi EIZlar jalb qilinayotgan kapital tarkibiga ko'ra ham farq qiladi. Agar rivojlangan mamlakatlarda bu kapital ko'proq milliy xususiy kapitaldan tashkil topsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ushbu kapital ko'proq xorijiy xususiy kapitaldan iboratdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi EIZlar qilayotgan xarajatlar tarkibi taxminan quyidagicha: bevosita davlat qo'yilmalari - 2-3%, mahalliy byudjetdan moliyalashtirish - 12-15%, imtiyozli davlat kreditlari - 30-35%, tijorat tarkibi va xorijiy investorlar tomonidan moliyalashtirish - 47-56%. Bu erda rivojlanayotgan mamlakatlar EIZlariga xos xususiyat kelib chiqadi. EIZlar orqali davlat tomonidan xorijiy investorlar uchun qulay preferentsial investitsiya muhiti yaratiladi. Ushbu mamlakatlarda milliy xususiy investorlar uchun turli chegaralar qo'yiladi. Ularning aksariyat qismiga milliy investorlarga ishlab chiqarilayotgan mahsulotning kamida 90%ini eksportga chiqarish sharti bilan kapital qo'yishga ruxsat beriladi.

Markaziy va Sharqiy Evropa hamda Xitoy mamlakatlarida 1980-yillarda erkin iqtisodiy zonalar, xorij kapitalini va texnologiyasini jalb qilish, tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish maqsadlarida tashkil qilina boshladi. Markaziy va

¹ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida talaba tomonidan shakllantirildi

Sharqiy Evropa mamlakatlarida, asosan, mahsulot-omborxon va eksport-ishlab chiqarish zonalari tashkil qilingan va ularga soliq hamda bojxona imtiyozlari berilgan. Misol uchun, Vengriyada, erkin iqtisodiy zonalarni, milliy iqtisodiyotni jahon xo'jaligi bilan integratsiyalashuvining real instrumentiga aylanishida etarlicha tajribaga ega.

Biroq Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarining ayrimlarida tashkil qilingan erkin iqtisodiy zonalar sezilarli natijalar bermadi, bunga ularni rivojlantirish uchun strategiyaning puxta ishlab chiqilmaganligi sabab bo'lgan. Bundan tashqari, erkin iqtisodiy zona faoliyati, ya'ni eksport-ishlab chiqarish zonalari kontseptsiyasiga asoslanib mamlakatga xorij kapitalini kirib kelishiga moslanmagan, sharoit yaratilmagan, bozor tuzilmasining zaifligi va mahalliy bozorning cheklanganligi sabab bo'lgan.


Xuddi shu paytda, Xitoyda tashkil qilingan erkin iqtisodiy zonalar ishonchli natijalarni ko'rsatdi. EIZlarni tashkil etish va boshqarishda Xitoy tajribasi alohida o'rin tutadi. Xitoy tajribasi o'tish iqtisodiyoti mamlakatlari va rivojlanayotgan mamlakatlar ichida muvaffaqiyatli hisoblanadi. Mamlakatda EIZni tashkil etish tashabbusi 1979 yilda XKP MK tomonidan ilgari surilgan va dunyo mamlakatlari bilan ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarish kooperatsiyasi va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga asoslangan ochiq tashqi iqtisodiy siyosat olib borish ko'zda tutilgan.

Xitoydagi erkin iqtisodiy zonalar birinchi galda xorij va chetdagi xitoy kapitalini jalb qilishga, ko'pgina va arzon ishchi kuchidan foydalanish, mamlakat hokimiyatining va mahalliy organ hukumatining moliyaviy qo'llab quvvatlanishiga qaratilgan. Eksportga mo'ljallangan va texnologik jihatdan yirik hajmga ega bo'lgan loyihalarga jalb qilingan xorij kapitallariga qo'shimcha soliq imtiyozlari berish yo'li bilan, asosiy fondlar amortizatsiyasini tezlashtirish bilan, ish kuchi va er ijaralariga to'lovlarini davlat tomonidan subsidiyalar ajratish bilan, Xitoy ichki bozorida mahsulotni sotishga qo'shimcha huquqlar berish va boshqa vositalar yordamida katta imtiyozlar beriladi. Bularning hammasi ushbu zonalarda qabul qilingan xalqaro talablarga javob bera oladigan qulay investitsion muhitning shakillanishiga olib keldi.

Erkin iqtisodiy zonaning amalda qo'llanilishi mamlakatni ma'muriy-taqsimotdan ochiq bozor iqtisodiyotiga o'tishiga, milliy xo'jalikning tez rivojlanishiga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatga kirib kelayotgan ko'p milliardlik investitsiyalar hisobiga, sanoatlashgan tashkilotlar va ish joylari sonining o'sishi, xorij kapitali ob'ektida mehnatni tashkil qilishning ko'payishi, erkin iqtisodiy zonalardagi eksport hajmining keskin ravishda oshishi kabilarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy ochiqlik dengiz sohili, mamlakatning ichki qit'a va chegaraga tutash rayonlari, Yantszi daryosi havzasi orqali amalga oshirildi. Xorijiy investitsiyalar asosan maxsus tashkil etilgan kompleks iqtisodiy zonalar orqali kirib keladi.

Xitoyda EIZlarni tashkil etish va boshqarish siyosati milliy iqtisodiyotga xorijiy kapitalni jalb etish siyosati bilan mos keldi. Xitoyda EIZni tashkil etish evolyutsiyasini uch bosqichga bo'lish mumkin (5 - rasm).



5 - rasm. Xitoyda EIZ tashkil etish bosqichlari¹

Birinchi bosqich - 1978 - 1982 yillar. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning huquqiy va institutsional asoslari yaratildi. Mazkur bosqichda dastlabki maxsus iqtisodiy zonalar - Guandun (Shenjen, Chjuxay, Shantou) va Futszyan viloyatlarida (Syaman) tashkil etildi.

¹ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida talaba tomonidan shakllantirildi
37

Ikkinchi bosqich - 1983 - 1989 yillar. Bu bosqich xorijiy investorlar bilan shartnomaviy huquqiy asosdagi hamkorlikning takomillashuvi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va undan foydalanishdagi davlat siyosatining erkinlashtirilishi bilan ajralib turadi.

Uchinchi bosqich - 1990 yildan hozirga qadar. 1990 yilda Shanxay shahri yaqinida yangi ochiq rayon Pudun barpo etildi. Bu rayon iqtisodiy va huquqiy tartibiga ko'ra erkin iqtisodiy zonaga to'liq mos keladi. Pudun rayonini tashkil etishdan maqsad Shanxay shahrini modernizatsiya qilish va Yantszi daryosi havzasi mintaqasini rivojlantirish edi. 1990 yilda uning hududida birinchi erkin savdo zonasi - «Veygatsyao» tashkil etildi. Ushbu zona eksport ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadi. Bu erdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 202 ta korxonaning 140 tasi to'liq xorijiy korxonalar hisoblanadi. Uning tashkil etilishini mamlakatning jahon iqtisodiyotiga ochilishini ta'minlashdagi yangi bosqich sifatida baholash mumkin.

Maxsus iqtisodiy zonalar eksport, ishlab chiqarish, savdo, ilmiy-ishlab chiqarish vazifalarini bajaradi. Shu bilan birga, ularning har biri alohida farqlarga ega. Bu farqlar soliq va bojxona tartibida o'z aksini topadi. Xitoydagi maxsus iqtisodiy zonalarning o'ziga xosligi shundaki, zonadagi korxonaning ishlab chiqarishi tashqi bozorga yo'naltirilgan hisoblanadi. Mahsulotlarni ichki bozorga sotish EIZ boshqaruv organining ruxsati bilan amalga oshiriladi va ulardan odatdagi tartibda bojxona to'lovlari undiriladi.

Xitoyda EIZni boshqarish masalalari butunlay viloyat darajasiga tushirilgan. EIZlarning mahalliy organlari tashqi iqtisodiy faoliyat va xo'jalik siyosati sohasida keng vakolatlarga ega. Misol uchun, Guandun va Funchjen viloyatlarida mahalliy organlar EIZlarni boshqarish masalalari haqida alohida qarorlar qabul qilishi mumkin.

Xitoy EIZlar tarkibi va imtiyozlari¹


Xitoydagi asosiy EIZlar va ularning soni	<ul style="list-style-type: none"> - maxsus iqtisodiy zonalar - beshta; - erkin dengiz portlari – o'n to'rtta; - Yantszi daryosida joylashgan ochiq portlar – oltita. - viloyat markazlari bo'lgan ochiq shaharlar - o'n uchta. - iqtisodiy va texnik rivojlanish zonalarini – o'n to'rtta. - iqtisodiy hamkorlik zonalarini - uchta. - texnik parklar – ellikta. - turizm rivojlangan umummilliy zonalar – o'n bitta.
Iqtisodiy imtiyozlar	<ul style="list-style-type: none"> - foydadan olinadigan soliq miqdori kamaytiriladi; - 20 mln. dollar xorijiy kapital qo'yilgan ob'ektlar, yuqori mehnat va texnologik sig'imkorligiga ega ishlab chiqarish uchun foyda solig'i 15% ni tashkil etadi; - mahsulotining 70%i eksportga chiqariladigan va yuqori texnologiyali korxonalar uchun 10 - 12% li soliqlar joriy qilinadi; - xorijiy ishbilarmonlar dividendi va daromadiga 10% soliq solinadi.
Bojxona imtiyozlari	<ul style="list-style-type: none"> - ishlab chiqarish va boshqaruv uchun investitsiya qilingan qurilish materiallari, detallar va uskunalardan; - xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar eksportidan; - ofis jihozlari va transport vositalaridan boj olinmaydi.

Xitoyda 1980 yilda bir xil turdagi to'rtta EIZ ochildi, ularning maqsadi keyinchalik Xitoyning boshqa hududlarida ham qo'llash rejalashtirilgan innovatsiya siyosatini sinovdan o'tkazish bo'lgan. Bu zonalar Shenjen, Chjuxay, Shantou (Guandun provintsiyasi) va Ksiamen (Fudjian provintsiyasi)da joylashgan edi.

¹ Iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish natijasida talaba tomonidan shakllantirildi

Xitoy iqtisodiyotining jahon savdo va investitsiyalari uchun ochilishi darhol o'z natijalarini ko'rsatdi. 1981 yilda Xitoyga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) oqimining 60%i to'rtta EIZ hissasiga to'g'ri keldi, shundan 51%i Shenjenda joylashgan zonaga, taxminan 3%dan qolgan zonalarga to'g'ri kelgan. 3 yildan keyin davlatga kiritilgan jami TTXIning 26%i EIZlar hissasiga to'g'ri keldi. 1985 yil oxirlariga kelib, jami TTXIning 20%i (taxminan 1,2 mlrd. dollar) to'rtta EIZ hissasiga to'g'ri keldi. EIZlarga xorijiy investorlardan ko'ra ko'proq Xitoylik investorlar ko'proq investitsiya kiritishgan. Birinchi navbatda ular infrastrukturaga va korxonalariga kiritilgan.

Dastlabki EIZlarning ish tajribasi ijobiyligi ko'ringandan keyin, faoliyatning bunday qulay rejimlari Xitoyning boshqa hududlarida ham qo'llanila boshlandi.



6-rasm. Umumiy dunyo tovar eksportida Xitoyning ulushi (foizda)¹

Chizma ma'lumotlaridan ko'rinadiki, 2011 yil natijalariga ko'ra dunyo tovar eksporti hajmi 18197 mlrd. dollarni tashkil etdi, shundan 10,4%i Xitoy hissasiga to'g'ri keladi. 2000 yilda umumiy dunyo tovar eksportida Xitoyning ulushi 3,86%ni, 1978 yilda, Xitoyda islohotlar endi boshlangan davrda bor yo'g'i 0,75%ni tashkil qilgan, ya'ni 33 yil ichida dunyo tovar eksportida mamlakatning ulushi 14 marta o'sgan.

1978 yilda boshlangan "ochiq eshiklar" islohoti alohida hududda boshlangan tajriba bo'ldi.

Xitoydagi EIZlar boshqa Osiyo mamlakatlaridagiga qaraganda kattaroq maydonni egallagani va kengroq faoliyat doirasiga egaligi bilan farqlanadi. EIZlar juda qulay joylarda joylashgan, ya'ni tashqi savdo bilan shug'ullanish

¹ <http://www.world economic.com>

qulay bo'lgan sohil bo'ylarida, Gonkong, Makao va Tayvan yaqinida tashkil qilingan.

Shenjen hududida EIZning ochilishi muhim strategik qaror bo'lgan, chunki Shenjen Gonkong yaqinida joylashgan. Mazkur maxsus ma'muriy rayon tajribasidan Xitoy iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda foydalangan va natija juda ham ijobiy bo'lgan. Ishlash uchun qulay sharoitlarning mavjudligi va faoliyat yo'nalishlarining to'g'ri tanlanganligi iqtisodiyotni yuksak darajada o'stirdi.

8 -jadval


Xitoydagi eng yirik Shenjen EIZning o'sish sur'atlari⁵

	2000 -2010 yillar	1979 -2010 yillar
Shenjen iqtisodiyotining o'sish sur'atlari	4,4 marta	4852 marta

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, Shenjen iqtisodiyotining o'cish sur'atlari juda baland edi: 1980 yildan 1984 yilgacha Shenjen YaIM 6 marta (yillik 58%) o'sdi, bu vaqtda Xitoy iqtisodiyoti bor-yo'g'i 1,5 marta o'sgan. Boshqa EIZlarda iqtisodiyotning o'sishi Shenjennikidan orqada edi, lekin baribir baland bo'ldi: Chjuxayda 32%, Shantouda 9%, Ksiamenda 13%. 2000 yildan 2010 yilgacha Shenjen iqtisodiyoti 4,4 marta, 1979 yildan 2010 yilgacha vaqt oralig'ida 4852 marta (joriy narxlarda) o'sdi. Shenjen yalpi ichki mahsuloti 2010 yilda 146 mlrd. dollarni tashkil etdi. 2012 yil iyulda Shenjen Xitoyning 13ta yirik megapolislarining biri sifatida tan olindi, uning aholisi taxminan 14 mln. kishini tashkil etadi . 1996 yilda Shenjenda sanoat parki tashkil qilindi, bu erdagi korxonalar biotexnologiya va farmatsevtika, qurilish va qurilish materiallarini ishlab chiqarish, ximik ishlab chiqarish, meditsina uskunalari, elektronika, dasturiy ta'minot va boshqa faoliyat bo'yicha shug'ullanadilar.

⁵ www.chinastar.ru

So'nggi uch yarim o'n yillik davrda Xitoy kabi iqtisodiyotning shiddatli o'cishi dunyoning hech bir davlatida kuzatilmadi. Xitoy 1978 yilda islohotlarni boshlashi va "ochiq eshiklar" siyosatini olib borayotgandan buyon Xitoy yalpi ichki mahsuloti yiliga o'rtacha 9% o'sa boshladi. Davlat eksportining hajmi bundanda tezroq sur'atda o'sdi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM ko'rsatkichi ham sezilarli o'sdi.



bo'lib, bug'doyni yanchgani uchun tegirmonchiga beriladigan haqni bildiradi. Makiladorasga chetdan keltirilgan materiallarni qayta ishlash asosida tovar va xizmatlarni eksporti bilan shug'ullanadigan sanoat korxonalarini kiradi. Bunday korxonalarining rivojlanishi dastur ishining boshidanoq juda faollashdi. 1985 yilda makiladoras Meksikaga turizm biznesidan ham ko'proq valyuta olib kela boshladi, NAFTAning tuzilishi uning keyingi rivojlanishini ta'minladi. 20 asrning so'nggida mamlakat YaIMni 25%i, mamlakatdagi ish bilan band aholining 17%i makiladoras hissasiga to'g'ri keldi. Globalizatsiya sharoitlarining kuchayishi, Xitoy bozorlarining ochilishi, boshqa mamlakatlarda EIZlarning tashkil etilishi makiladoraslar sonini 2000 yillarning boshida qisqartirda, investitsiyalarni kamaytirdi, lekin industriya Meksika iqtisodiyotida ahamiyatini yo'qotmadi. Hozirgi vaqtda korxonalar ishchilarining ish haqi past bo'lgani uchun Meksika elektronika, kiyim-kechak, mebel va avtomobil ishlab chiqaruvchi yirik AQSh, Evropa, Yaponiya transmilliy kompaniyalari uchun jozibali bo'lib qolmoqda. Meksikaliklarning ish haqisi, xuddi shunday malakadagi amerikaliklar ish haqisining 25%ini, meksikaliklarning ish haftasi 48 soatni tashkil qiladi. Bundan

tashqari makiladoras katta qismining chegarada joylashuvi transportirovka xarajatlarini kamaytiradi. Bu esa Meksika hududiga investorlarni jalb etadi. Hozirgi vaqtda makiladoras tajribasi nafaqat Meksikada, balki Lotin Amerikasining boshqa mamlakatlarida ham muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.

Hindistonda EIZlarni rivojlantirishda asosiy urg'u informatsion texnologiyalar, farmatsevtika, biotexnologiyalar, tekstil, neftni qayta ishlash va avtomobil qismlari sanoati sohalariga qaratilgan va hududiy nuqtai nazardan Maxarashtra, Gujarat, Xaydarobod, Andra Pradesh, Tamil Nadu va Dehli shtatlarida mujassamlangan. Ushbu 6 ta shtatga Hindistonning boshqa zonalariga qaraganda eng ko'p xorijiy investitsiyalar kirgan.

Hindistondagi faoliyat yuritayotgan EIZlar ulardan ko'zda tutilgan maqsadga - eksport hajmini oshirishga - qanchalik erishganini tahlil etish uchun quyidagi raqamlarga murojaat etamiz. 2007-08 moliyaviy yil mobaynida (Hindiston moliyaviy yili 1 aprelda boshlanib 31 martda tugaydi) 163 mlrd. AQSh dollarlik tovarlar eksport qilingan bo'lsa, 2008-09 moliyaviy yilda bu raqam 14 foizga oshdi va 185 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Kelgusi yilda esa global iqtisodiy tanazzul sabab eksport hajmi 5 foizga kamaydi va 177 mlrd. AQSh dollariga teng bo'ldi. Lekin bu davr mobaynida EIZlarning mamlakat eksportidagi ulushi uzluksiz ravishda o'sib bordi. Ya'ni 2007-08 yilda EIZlardan bo'lgan eksport 16.5 mlrd. AQSh dollariga teng bo'lgan va 2008-09 yilda esa bu ko'rsatkich 22 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan, yoki EIZlardan bo'lgan eksport jami mamlakat eksportining 10-11 foizini tashkil etgan. Lekin kelgusi yilda, 2009-10 yilda EIZlardan bo'lgan eksport hajmi keskin o'sib 46.51 mlrd. AQSh dollariga etdi va uning ulushi jami mamlakat eksportida 26 foizdan oshiqroq bo'ldi⁶. Boshqa so'zlar bilan aytganda, EIZlar bugungi kunda mamlakat eksportining to'rtidan bir qismidan ortig'ini ta'minlamoqda va Hindistonga xorijiy investitsiyani kirib kelishida muhim rol o'ynamoqda.

EIZlarning Hindiston uchun bugungi kundagi ahamiyatini inkor etib bo'lmasligini quyidagi raqamlar ham isbotlaydi: agar EIZlarni hisobga olinmasa

⁶ K. Bhattacharya: The rise of special economic zones Is the time ripe for taking a fresh look at the SEZ policy? A. K. Bhattacharya/ New Delhi May 19, 2010

2009-10 yildagi Xindiston eksporti bor yo'g'i 130 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi xolos, bu esa 2008-09 yildagi EIZlarsiz hisoblangan 163 mlrd. AQSh dollarilik eksportdan 20 foiz kamdir. Ya'ni, global iqtisodiy tanazzulga qaramasdan EIZlar eksportning 100 foizga o'sishiga erishgan bir vaqtda Hindistonning EIZlarsiz qismida eksport 20 foizga kamaygan .

2.3. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonalar faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari

O'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar, xususan, Markaziy va Sharqiy Evropa mamlakatlarida EIZni barpo etish XX asrning 80-yillaridan boshlangan. Bu erda asosiy maqsad markazlashgan – rejali milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiyoti tomon ochiqligini tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish orqali kuchaytirish bo'lgan. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish lozim: milliy ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish; tovarlar va xizmatlar eksportidan hamda xorijiy investitsiyalardan keladigan valyuta oqimini ko'paytirish; import xarajatlarini kamaytirish; yangi turdagi mahsulot hamda xizmatlarni o'zlashtirish va boshqalar.

Sanab o'tilgan maqsad va vazifalar o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda EIZni barpo etish hamda ularni boshqarishda o'ziga xos xususiyatlarning shakllanishiga olib keldi. Ushbu mamlakatlardagi EIZni barpo etishning umumiyliigi ularning «anklavligi»dir. EIZga xos xususiyat esa hududning tashqi iqtisodiy rejimini belgilashda yuzaga keladi. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarida, asosan, erkin tadbirkorlik zonalarini tashkil etiladi. Bizning fikrimizcha, ular eksport – ishlab chiqarish zonalariga to'g'ri keladi. Ularga xos xususiyat korxonalarining xizmatlar eksporti, milliy va xorijiy xo'jalik sub'ektlarining ishlab chiqarish faoliyatini ta'minlashdan iboratligidadir. Bu zonalar davlatniki (Ruminiya, Vengriya, Bolgariya), aksioner (Polsha) va aralash (Vengriya) bo'lishi mumkin. Ularga ajratilgan hududda tegishli infratuzilma yaratiladi, uni milliy iqtisodiy sub'ektlar ijaraga olishadi va xo'jalik faoliyatini amalga oshirishadi.

Rossiyada erkin iqtisodiy hududlar 1980-yillar oxiri 1990-yillar o'rtalariga kelib tashkil qilina boshlandi. Rasman tasdiqlangan erkin iqtisodiy hududlar bir necha o'ntadan iborat edi. Ular ichida erkin savdo hududlariga tegishli maxsuslashtirilgan turli xildagi hududlar va o'z hajmiga ko'ra kattaroq, umumiy, kengroq bo'lgan hududlar mavjud. Biroq, Rossiyada tashkil qilingan barcha erkin iqtisodiy hududlar ham vaqt o'tishi bilan tajribalarga dosh berolmadi. Bunga EIZga nisbatan mamlakat siyosatining munosabati ham ta'sir ko'rsatgan. Ular ichida muvaffaqiyat qozonganlardan Primorya o'lkasining "Naxodka" erkin iqtisodiy hududi va Kaliningrad viloyatidagi maxsus iqtisodiy hududlarni aytish mumkin.

"Naxodka" erkin iqtisodiy hududi 1990 yilda tashkil qilingan bo'lib, uning vazifasi transport tizimini rivojlantirish orqali yirik erkin transport tarmog'ini yaratish edi. Bu hududda temiryo'llari, havo yo'llari va dengiz transport yo'llarining mavjudligi, uning AQSh, Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya va Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari kabi dunyoning iqtisodiy jihatdan yirik shaharlariga yaqinligi sababli Rossiyadan Evropaga yuklarni taqsimlaydigan markaz bo'lishi taxmin qilingan edi. Naxodka - Rossiyaning Uzoq Sharqdagi yirik dengiz portidir. Bu erdan Transsibir xalqaro konteyner ko'prigi boshlangan bo'lib, ekspertlarning fikricha, yirik xalqaro yuk tashuvchi kompaniyalar Rossiyani 10-12 mlrd. dollarlik yillik daromad bilan ta'minlashi mumkin edi. Dastlab bu zona muvaffaqiyat bilan faoliyat yuritdi. Bu erkin zonaga 200 mln doll.dan ortiq xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi natijasida 470dan ortiq qo'shma korxonalar tashkil qilinib, faoliyat yuritdilar. 90 yillarning o'rtalariga kelib, "Naxodka" erkin iqtisodiy zonasi o'z texnik-iqtisodiy imkoniyatlarini rivojlantirish va ayniqsa xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha katta ijobiy natijalarga erisha boshladi. Dastlab EIZni rivojlantirish uchun rossiyalik va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga erishildi, lekin uning rivojlanishi birdan to'xtadi. Kupchilik buni nazoratsiz o'g'rilik bilan bog'ladi, lekin asosiy sabab loyihani qonunchilik jihatidan qo'llab- quvvatlanmasligi bo'ldi. Masalan, soliq yuki o'z vaqtida pasaytirilmadi, tadbirkorlikning ma'muriy to'siqlari olib tashlanmadi, investitsiyalarni himoyalash masalalari o'z echimini topmadi. 2006 yilda «Naxodka» EIZsi loyihasi o'z faoliyatini rasman to'xtatdi.

Rossiyada maxsus iqtisodiy zonalarning tizimli rivojlanishi 2005 yildan, 2005 yil 22 iyulda "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonunni qabul qilinishi bilan boshlandi. 2006 yildan 2012 yilgacha Rossiya maxsus iqtisodiy zonalariga 300dan ortiq investorlar, shuningdek 44 xorijiy kompaniyalar kelishdi. Rossiyada maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) boshqaruvi bilan "Maxsus iqtisodiy zonalar" OAJ shug'ullanadi. Bu tashkilot 2006 yilda Rossiyaga TTXI jalb etish hamda MIZni rivojlantirish va boshqarishda jahon tajribasini qo'llash maqsadida tashkil qilingan. 2012 yil 1 yanvar holatiga ko'ra Rossiya EIZ rezidentlari sifatida 306ta kompaniya, shundan 44si 20ta mamlakatdan kelgan xorijiy kompaniyalardir. Kelgusida MIZ samaradorligiga quyidagilar salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin: chet eldagi MIZlar bilan yoki Rossiyadagi xususiy sanoat parklari bilan raqobat; MIZlarni tarmoq xususiyatiga ko'ra ajratish, masalan ishlab chiqarish, turizm,

innovatsiya, port faoliyati (ekspertlarning fikricha, bunday ajratish shuni bildiradiki, ishlab chiqarish tarmog'i innovatsion sektor bilan o'zaro faoliyat olib bormaydi, bu esa iqtisodiy moslashuvchanlikni kamaytiradi); malakali ishchi kuchining etishmasligi. Investitsiyalash uchun asosiy ustuvorlik zonalardagi mavjud shart-sharoitlar va huquqiy mexanizmlardir.

9 -jadval

Rossiyadagi ayrim MIZning asosiy xususiyatlari¹

MIZning joylashgan joyi	MIZning ixtisoslashuvi	Zona infrastrukturasi davlat investitsiyalari
Sankt-Peterburg sh.	Dasturiy ta'minot, aloqa vositalari maishiy elektronika jihozlari ishlab chiqarish	Taxminan 1,5 mlrd. rubl, shundan 50%i federal byudjetdan
Dubna sh., Moskva viloyati	Elektron jihozlarni yasash, yangi uchish apparatlarini loyihalash, muqobil energiya manbalarini ishlab chiqish	2,5 mlrd. rubl, shundan 65%i federal byudjetdan
Zelenograd sh.	Mikroshemalar, navigatsiyaning intellektual tizimlarini ishlab chiqish va o'zlashtirish	5 mlrd. rubl, shundan 50%i federal byudjetdan
Tomsk sh.	Informatsion-kommunikatsion, elektron va meditsina texnologiyalarini, shuningdek yangi materiallarni ishlab chiqarish	Taxminan 1,9 mlrd. rubl (70%i federal byudjetdan)
Lipetsk sh.	Maishiy texnika va unga komplekt qismlarni ishlab chiqarish	1,8 mlrd. rubl (42%i federal byudjetdan)
Elabuga sh., Tatariston	Avtomobil komponentlarini, avtobuslarni, maishiy texnikani chiqarish. Yuqori texnologik ximik ishlab chiqarish	1,6 mlrd. rubl (49%i federal byudjetdan)

Sanoat ishlab chiqarish zonalariga Tatariston Respublikasining Elabuga rayoni va Lipetsdagi Gryazin rayoni kiradi. Bundan tashqari 2010 yilda xuddi shu turdagi MIZni Samarada hamda Sverdlovda "Titan vodiysi"ni tashkil etish haqida

¹ www.Grahdars.ru

qaror qabul qilindi. Sanoat zonalarini doirasida faoliyatning quyidagi asosiy yo'nalishlari rivojlanadi: avtomobil va avtokomponentlar ishlab chiqarish; qurilish materiallari ishlab chiqarish; kimyoviy va neftkimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish; maishiy texnika va savdo uskunalari ishlab chiqarish va hokazo.

Innovatsion zonalar (texnik-tadqiqot yoki texnologik parklar) ilmiy an'analarga boy va tadqiqot maktablari, deb tan olingan ilmiy-ta'lim markazlarida joylashadi. Bunda loyihalarni investitsiyalash orqali innovatsiya biznesini va ilm talab etadigan ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratiladi. Rossiya hududida to'rtta innovatsiya zonasi bo'lib, ular Tomsk, Sankt-Peterburg, Moskva va Dubnada joylashgan.

Turistik (turistik-rekreatsion) zonalar Rossiyaning eng chiroyli joylarida joylashadi va turistik, sport, rekreatsion biznesni tashkil etish uchun qulay sharoitlar taqdim etiladi.

Port (port-logistika) zonalarini asosiy global tranzit koridorlari yaqinida joylashadi. Ular investorlarga Uzoq Sharq va Rossiyaning markaziy qismidagi port-logistika xizmatlariga etishish imkoniyatini beradi.

2007 yilda Kaluga viloyatida OAJ "Kaluga viloyatini rivojlantirish korporatsiyasi" tashkil etildi. Bu hududiy rivojlanish instituti, Kaluga viloyatida sanoat parklarining davlat operatoridir. Oz fursat ichida korporatsiya bir qancha chet el investorlarini jalb qildi. Korporatsiya ishi natijasida sanoat parklarini yaratishga kiritilgan investitsiyalar 152,7 mlrd. rubldan oshdi. Viloyatda 17,5 mingdan ortiq ishchi o'rni yaratildi. Hozirgi vaqtda Kaluga viloyatida bir qancha sanoat parklari ish faoliyatini olib bormoqda.

Rossiya hududida eng so'nggi tuzilgan MIZlardan biri sanoat ishlab chiqarish turidagi "Titan vodiysi"dir. Bu Rossiya hukumatining 2010 yil 16 dekabrda Qarori bilan Sverdlovsk viloyatida tashkil qilingan. Bu Ural federal okrugini 2020 yilgacha rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturdir. MIZ loyihasining federal maqomi uni amal qilish muddati davomida Rossiya qonunchiligidagi noqulay o'zgarishlardan himoyani kafolatlaydi. Mazkur zonaning asosiy maqsadi mashinasozlik, aviasozlik, kimyo va farmatsevtika sanoati, qurilish industriyasi sohalarida mahsulot ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalardan

foydalanadigan korxonalarni tashkil etishdir. Bu MIZning amal qilish muddati davomida 10 ming ish o'rni bilan ta'minlaydigan 50ta rezident jalb qilinishi rejalashtirilmoqda. Ekspertlarning baholashicha, loyihani amalga oshirishga taxminan 27 mlrd. rubl talab etiladi.

"Titan vodiysi"ning ustunligi shundaki, u Rossiyaning eng iqtisodiy rivojlangan hududlaridan biri bo'lgan Sverdlovsk viloyatida joylashgan. 2011 yil avgustda MIZ "Titan vodiysi"ning birinchi rezidenti - MChJ "VSMPO-Yangi texnologiyalar", ikkinchi rezidenti MChJ "Sinersis" ("Elektromashinasozlik zavodi" MChJ - kompaniya ta'sischi) ro'yxatdan o'tdi. 2012 yil iyulda "Titan vodiysi"da qurilish ishlab chiqarishga tayyor yana ikkita loyiha qo'llab quvvatlandi. Tez orada 100 mln. evrodan ortiq investitsiya kiritishni rejalashtirgan o'nga yaqin kompaniya MIZga kirishi mo'ljallangan.

Qozog'iston neft va gaz zahiralari boy davlat hisoblanadi. Keyingi o'n yillikda neftni qazib chiqarish va eksport qilish bo'yicha dunyodagi eng yirik davlatlardan biriga aylanishi mumkin. Qozog'iston iqtisodiyotining rivojlanishi dunyo iqtisodiy hamkorligiga yanada integratsiyalashish; energetika va mineral resurslar zahiralari foydalanish; mamlakatning tranzit imkoniyatlari; yuqori darajadagi mutaxassislarning mavjudligi, shuningdek sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti uchun ulkan imkoniyatlar bilan bog'liq. Hozirgi kunga qadar Qozog'istonning iqtisodiy o'sishiga xorijiy investitsiyalar katta ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ular asosan tez rivojlanadigan neft va gaz sohalariga to'g'ri keladi. 1991 yilda Qozog'iston mustaqillikka erishgach, shu paytgacha 30 mlrd. doll.dan ortiq to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb qilindi. 2010 yilda Qozog'iston hukumati sanoat-innovatsion rivojlanish bo'yicha dastur ishlab chiqdi. Bu dastur 2010-2014 yillarga mo'ljallangan bo'lib, bu dastur doirasida summasi 8100 mlrd. tanga (taxminan 55 mln dollar) bo'lgan 294 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Bularning faoliyati natijasida 207 mingta ish o'rni yaratilishi mo'ljallangan¹. Besh yillik sanoat rejasining birinchi yilida iqtisodiyotning real sektori asosida iqtisodiy o'sish bo'yicha jiddiy tarkibiy o'zgarishlar kuzatildi. Bundan tashqari yaqin yillarda Qozog'istonda "xalq IPO"si deb nomlangan, katta hajmdagi dasturni o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib, uni amalga oshirilishi natijasida xususiy shaxslar yirik milliy

kompaniyalarning aktsiyalariga egalik qilishlari mumkin. Bu dastur Qozog'iston Respublikasi fuqarolari qiziqishlari doirasida ishlab chiqilayotgan bo'lib, aholining yirik milliy kompaniyalar aktsiyalarini sotib olish imkoniyatini ta'minlashga yo'naltirilgan. Shu orqali qozog'istonliklar ularning egalari bo'lishlari va mamlakatning iqtisodiy o'sishida o'z hissalarini qo'shishlari mumkin. Bu dastur shuningdek, mamlakatdagi qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlanishiga, kapital bozoriga aholi mablag'larini jalb qilish orqali mamlakat iqtisodiyotini o'sishiga, aholining moliyaviy savodxonligini oshishiga, davlat va xususiy korxonalar keng doirasining fond bozoriga chiqishi uchun zaruriy sharoitlarni ta'minlashga yordam beradi.

Xorijiy investitsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturiga ko'ra ustuvor tarmoqlar quyidagilar:

- neftni qayta ishlash va neft-gaz tarmog'i uchun infrastrukturani rivojlantirish;

- tog'-kon metallurgiya tarmog'i;

- kimyo va mashinasozlik sanoati;

- atom va yadro energetikasi;

- farmatsevtika sanoati;

- qurilish sanoati va qurilish materiallari sanoati;

- qishloq xo'jaligi tarmog'i;

- engil sanoat; turizm industriyasi;

- axborot texnologiyalari va biologik texnologiyalar;

- kosmik faoliyat va muqobil energetika.

Investitsion imtiyozlar: investitsiya loyihasini amalga oshirish uchun uskuna va uning ehtiyot qismlari import bojidan ozod qilingan; davlat grantlarini taqdim etish: er, bino, qurilma, mashina va uskunalar, hisoblash texnikasi, o'lchovchi asbob-uskunalar, avtomobildan boshqa transport vositalari, sanoat va maishiy texnika.

Qozog'istonda hozirgi kunda oltita maxsus iqtisodiy zonalar tashkil etilgan: "Ostona - yangi shahar" MIZ, "Burabay" MIZ, "Aktau dengiz porti", "Neft-kimyo parki" MIZ, "Ontustik" MIZ, "IT park MIZ".

MIZ a'zolariga quyidagi imtiyozlar berilgan:

- foyda, er, mulk solig'idan;
- MIZ hududiga kiritilgan, MIZ hududida yaratilgan yoki MIZ yaratish bilan bog'liq tovar va xizmatlar uchun QQSdan;
- MIZ yaratish bilan bog'liq ma'muriy va sanoat ob'ektlarini qurilishi uchun QQSdan;
- bojxona bojlaridan ozod qilingan.

MIZ a'zolari 2011 yildan boshlab, yangi "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonunga ko'ra quyidagi qo'shimcha imkoniyatlardan foydalanadilar:

- MIZ hududida erdan foydalanganlik uchun to'lovdan 10 yil muddatga ozodlik;
- axborot texnologiyalari uchun qo'llaniladigan dasturiy ta'minotning amortizatsiya normasini 15 % dan 40 %ga oshirish;
- MIZ hududiga xorijiy ishchi kuchi importi uchun maxsus jarayonni kiritish;
- MIZ a'zolari uchun "one-stop shop" xizmati (kontseptsianing yagona markazi).

"Ostona - yangi shahar" maxsus iqtisodiy zonasi uchun qo'shimcha imtiyozlar kiritilgan: korporativ daromad solig'idan 100 % ozod etilgan, "Axborot texnologiyalari parki" maxsus iqtisodiy zonasida 5 yil muddatga ijtimoiy ta'minot bo'yicha soliqdan ozod etilgan.

III-BOB. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini rivojlantirish istiqbollari

3.1. O'zbekistonda tashkil etilgan erkin iqtisodiy hududlarning asosiy yo'nalishlari

Hozirgi kunda O'zbekistonda quyidagi erkin iqtisodiy zonalar tashkil qilingan: Navoiy shahrining xalqaro aeroporti hududi yaqinida «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasi (EIIZ), Toshkent viloyatida «Angren» maxsus industrial zonasi (MIZ), Jizzax viloyatida Sirdaryo viloyatining Sirdaryo tumanida filiali bo'lgan «Jizzax» maxsus industrial zonasi (MIZ), O'zbekiston Milliy universitetida Kembrij universiteti bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot markazi. Erkin industrial-iqtisodiy zona – bu mamlakatimiz iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni, birinchi galda, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni faol jalb etishning muhim omilidir. Navoiy


respublikamizda sanoat sohasida ulkan salohiyatga ega viloyat. Bu hududda 20 tadan ortiq yirik sanoat korxonalarini faoliyat yuritadi.

"O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi Koreya Respublikasidan lizing asosida 2 ta «A 300 – 600 F» rusumli yuk samolyotini xarid qilib, ularni logistika ixtiyoriga berdi. Pirovardida markazning salohiyati yuksalib, uning uchun jahondagi barcha yuk bozorlariga yo'l ochildi. Chunki yangi havo kemasining har biri 40 tonnagacha yuk bilan 7 ming kilometr masofani to'xtamasdan bosib o'ta oladi. Ko'rinib turibdiki, Navoiy aeroportida xalqaro qatnovni amalga oshiradigan barcha zamonaviy samolyotlarga tezkor, yuqori sifatli texnik va servis xizmati ko'rsatish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

"Navoiy" xalqaro aeroporti Korean Air boshqaruvi o'tgandan so'ng uning iqtisodiy ko'rsatkichlari sezilarli darajada ijobiy tomonga o'zgardi. 2009 yilning 6 oyi mobaynida "Navoiy" aeroportidan uchishlar soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 barobardan ortiq o'sdi, ya'ni 133 dan 433 taga etdi. Aeroportning yuk tashish terminali orqali tashilgan yuklar hajmi 15 tonnadan 3337 tonnaga etdi.

Aeroportning foydasi esa, 10 martaga ko'paydi va 5810 ming AQSh dollarini tashkil qildi⁷.

"Navoiy" EIIZda tashkil etilgan barcha korxonalar zamonaviy yuqori texnologik uskunalar bilan jixozlangan bo'lib, bularning barchasi jahon bozorida raqobatbardosh bo'lgan tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkonini beradi.



Demak, "Navoiy" EIIZning tashkil etilishi mamlakatga iqtisodiy yutuq beradi.

Rejadagi loyihalar	Akkumulyator simlari, avtomobil gaz ballonlari, mobil va statsionar telefonlar, modemlar va internet uchun qo'shimcha moslamalar ishlab chiqarish bo'yicha korxonalar tashkil etish
--------------------	---


8 - rasm. Navoiy EIIZda tashkil etilgan yo'nalishlar va istiqboldagi loyihalar

«Navoiy» EIIZda 2010-2011 yillarda umumiy qiymati 100 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan 20 ta investitsiya loyahasini ishga tushirish bo'yicha qurilish va montaj ishlari olib borildi. Ular elektronika, avtomobil ehtiyot qismlari, kosmetika mahsulotlari, polimerni qayta ishlash va oziq-ovqat sanoati sohasiga

⁷ www.jahonnews.uz

tegishli loyihalardir. 2010 yilda «Navoiy» EIIZda tashkil qilingan korxonalariga 57,6 mln. AQSh dollaridan ziyod investitsiya kiritilgan. Mazkur korxonalarni ishga tushirish orqali 397 tadan ortiq yangi ish o'rinlari tashkil qilindi. «Navoiy» EIIZda 2011 yilda 35,9 mlrd. so'mlik yoki 20,5 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan miqdorda tayyor mahsulotlar ishlab chiqarildi va shundan 195,2 ming AQSh dollariga teng miqdordagi mahsulotlar eksport qilindi⁸.

Bundan tashqari, 2010-2011 yilgi Davlat investitsiya dasturlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 15 dekabrda PQ-1442-sonli "2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, "Navoiy" EIIZda umumiy qiymati 269,8 mln. AQSh dollariga teng bo'lgan 24 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. EIIZga kiritiladigan investitsiyalar hajmi yil sayin ortib borishi ko'zda tutilgan (9 - rasm).



⁸ www.nfiez.uz/news.

9 - rasm. Navoiy EIIZga kiritilgan va kiritilishi rejalashtirilgan investitsiyalar dinamikasi (mln. AQSh dollari)⁹

Umuman, "Navoiy" EIIZning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun hozirda quyidagi omillar mavjud:

-turli xom ashyo resurslarining mavjudligi va ularni 30%dan kam bo'lmagan mahalliyashtirish darajasida chuqur qayta ishlash imkoniyati;

-ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish bilan bog'liq yirik bozorlarning mavjudligi;

-transport infratuzilmasining rivojlanganligi;

-katta inson salohiyatining mavjudligi;

-hududda yuqori texnologiyalarni jalb etish orqali diversifikatsiyalangan ekologik toza sanoat bazasini shakllantirish imkoniyati.


Shu borada to'plangan tajribani va Toshkent viloyatidagi ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan foydalanish, Farg'ona vodiysidagi korxonalar bilan barqaror iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishning kelajakda muhim ahamiyatga ega ekanini hisobga olgan holda, 2012 yilda "Angren" maxsus industrial zonasini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan edi.

"Angren" MIZ, birinchi galda, o'z vaqtida sanoat shaharlari sifatida tashkil qilingan, ammo bu salohiyat o'z davrida bir yoqlama, markazga yo'naltirilgan ishlab chiqarishga asoslanib qolgan Angren va Ohangaron shaharlarining bugungi kunda isloh etilayotgan sanoat tizimini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy texnologiyalar asosida qo'shimcha ish o'rinlari yaratilishini ta'minlaydi. Bu bilan ushbu maxsus iqtisodiy zona Toshkent viloyatidagi ikkita yirik hudud – Angren hamda Ohangaron shaharlari va ularning atrofidagi mahalliy punktlarda istiqomat qilayotgan aholi farovonligini oshirishga ham munosib ulush qo'shadi.

Mazkur MIZning yana bir afzalligi shundaki, u mamlakatimizning shimoli-sharqiy qismidagi Angren va Ohangaron shaharlari hamda ular atrofidagi hududlarda barpo qilinadi. Bu hududda "Angren" logistika markazi ham

⁹ Raimjonova M.A. O'zbekiston erkin iqtisodiy hududlariga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya aftoreferati. - T. Bank moliya akademiyasi. 2012 yil, 15-bet

joylashganligi esa, yangi industrial zona salohiyatining oshishiga qo'shimcha yordam bo'ladi.



ajratish uchun Toshkent viloyati _____ hokimligiga taqdim etish.

10 - rasm. «Angren» MIZda qatnashchilarni ro'yxatga olish tartibi¹⁰

Shuningdek, O'zbekistonni Qirg'iziston orqali Xitoy bilan bog'lovchi bo'lajak avtomagistralning Angren shahridan o'tishi, qolaversa, ushbu shahar mamlakat poytaxtini Farg'ona vodiysi bilan bog'lovchi asosiy nuqtalardan biri ekanligini inobatga olsak, "Angren" MIZ ham milliy, ham mintaqaviy, ham xalqaro miqyosda ahamiyatga molikligi yanada oydinlashadi. Shu tariqa bugungi kunda mamlakatimizning markaziy qismida joylashgan va ishlab chiqarish bilan bir qatorda, havo transporti vositasida xalqaro miqyosda xizmat ko'rsatishga asoslangan "Navoiy" EIZ safiga shimolda joylashgan va ishlab chiqarishdan tashqari milliy hamda xalqaro miqyosda avtomobil yo'llari yordamida yuk tashishga asoslangan "Angren" maxsus industrial zonasi ham qo'shildi.

Loyihalar	Soni	Summasi	Yo'nalishlari
£	H	£	£
Amalga oshirilayotgan loyihalar	8 ta	186 mln. doll.	- turli tayyor mahsulotlarni va butlovchi buyumlarni ishlab chiqarish, shuningdek, yangi shakar zavodini qurish, tayyor charm buyumlar ishlab chiqaradigan kompleksni barpo etish
Rejadagi loyihalar	22 ta	245 mln. doll.	- yuqori texnologik ishlab chiqarish korxonolari

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Investitsiya loyihalarini tanlab olish va "Angren" maxsus industrial zonasi qatnashchilarini ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 282-sonli qarori, 2012 yil 3 oktyabr

11 - rasm. Angren MIZdagi loyihalar¹¹

Mazkur industrial zonada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar, kiritilgan investitsiyalar hajmiga qarab, 3 yildan 7 yilgacha bo'lgan muddatga keng ko'lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferentsiyalar berildi, ularning infratuzilma ob'ektlari va kommunikatsiyalarga kafolatli ravishda ulanishi ta'minlanmoqda.

O'zbekiston respublikasi hukumati "Angren" maxsus industrial zonasida (MIZ) yangi shakar zavodi qurilishi haqida qaror qabul qildi. Zavodning quvvati sutkasiga 1 ming tonna shakar ishlab chiqaradi. 108,5 mln.\$ qiymatli loyihaga investor qilib Welton International EnterprisesPte. Ltd va OrientalSingaporeCapitalPte. Ltd Singapur kompaniyalari hamda SEID Handelsgesellschaftm.b.H Avstriya kompaniyasi jalb qilinadi.

Investorlar 20 mln. \$ ustav fondli «Angren shakar» xorijiy korxonalar yaratadilar. Zavod ta'asis etuvchilarning pul mablag'lari xisobiga shakllanadi, shu bilan bir qatorda mana shu soxa orqali olingan daromadning reinvestitsiya qilgan holda xam.

Loyihani amalga oshirish "Angren shakar"ni ta'asis etuvchilar ustav fondiga 55 mln. \$ badal sifatida taqdim etadilar. Singapur Oriental SingaporeCapitalPte. Ltd kompaniyasi ham, xorijiy investorlar kafilligi ostida, kredit sifatida 53,45 mln. \$ taqdim etadi.

3.2. O'zbekistonda erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning jahon tajribasini qo'llash imkoniyatlari

Erkin iqtisodiy zonalar tashkil etishning muhim jihati ma'lum hudud yoki ishlab chiqarish sohasini iqtisodiy rivojlantirishni rag'batlantirish, shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida erkin iqtisodiy zonalardan iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning hududiy uslubi sifatida foydalanishdir.

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, bugun erkin iqtisodiy zonalardan nafaqat sarmoyalarni jalb qilish, balki hududiy iqtisodiy siyosat vositasi sifatida

¹¹ I.A.Karimov "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". T.: "O'zbekiston", 2013 yil, 11 - betdagi ma'lumotlar asosida talaba tomonidan shakllantirildi.

ham unumli foydalanilmoqda. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, EIzlarda kutilgan samaraga erishish uchun ularni qachon, qanday yo'nalishda va qanday miqdorda qo'llashni aniq bilish kerak. Bu borada aynan shu uchta asosiy qoidaga rioya qilmaslik tufayli ularning mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatish hollari ham uchraydi. Masalan, sobiq "ittifoqdosh" respublikalarning bir nechtasi o'tgan asrning 90-yillarida shoshma-shosharlik bilan qator erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etganlarini bir esga olaylik. O'sha davrda mazkur mamlakatlarda bozor infratuzilmasi va munosabatlari shakllanishning boshlang'ich bosqichida bo'lgani hisobga olinmaganligi oqibatida ularga sarflangan mablag'lar va moddiy resurslar hech qanday samara bermadi. Pirovardida EIzlarning aksariyati o'z faoliyatini to'xtatdi. Bunday muvaffaqiyatsiz tashabbuslarga Moldova, Belarus, Ukraina, Qirg'iziston kabi davlatlardagi EIzlar misol bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda esa avvalo, maqbul iqtisodiy muhitni yaratish, bozor iqtisodiyoti institutlari va xususiy tadbirkorlar sinfini shakllantirishga alohida e'tibor berildi. Shu tariqa iqtisodiy tizim va undagi xususiy sektor dunyodagi yirik investorlar bilan aynan mamlakat iqtisodiyoti uchun samarali yo'sinda, ya'ni yuqori qo'shimcha qiymat yaratuvchi ishlab chiqarish sohalarida to'laqonli hamkorlik qila oladigan holga keltirildi. O'z vaqtida erkin iqtisodiy zonalarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir etishi hisobga olingan holda, "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Ushbu sa'y-harakatlar bugun respublikamizda bir necha yillar oldin boshlangan iqtisodiy siyosatning naqadar puxta ishlab chiqilgani va oqilona ekanligini isbotlamoqdaki, buni nafaqat yurtimiz aholisi, balki dunyoning eng nufuzli xalqaro tashkilotlari, rivojlangan mamlakatlar rahbarlari, etuk iqtisodchi-olimlar va yirik investorlar ham tan olmoqdalar.

Erkin iqtisodiy zonalarning zaruriyatini rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning unga bo'lgan ishlari orqali tahlil qilish mumkin. Hukumat bunday zonalarni iqtisodiy faollikni oshirish, investitsiyalarni ko'paytirish, bandlikni oshirish, xalqaro savdoni kuchaytirish va boshqa shunga o'xshash maqsadlarda tashkil qiladi. Uzoq muddatli yo'nalishda zonalar texnologiyalarni uzatish,

hududiy rivojlantirish va samarali xo'jalik aloqalarini shakllantirish markazlari hisoblanadi.

BMTning transmilliy korporatsiyalar bo'yicha markazi maxsus zonalarning o'sishini so'nggi o'n yillikdagi ahamiyatli tendentsiyalardan biri, deb hisoblaydi.

EIZlar dunyoning ko'plab mamlakatlarida, ya'ni rivojlangan, rivojlanayotgan va o'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda uchraydi. Mamlakatning iqtisodiy o'sish darajasiga qarab, olib borilayotgan siyosatga qarab erkin iqtisodiy zonalarning turi tanlanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlar EIZlar uchun joy tanlayotganda, o'sha joyda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning ozmi- ko'pmi rivojlangan bo'lishligiga katta ahamiyat qaratadilar. Chunki infratuzilmaning yaxshi bo'lmasligi hududni o'zlashtirish uchun moliyaviy va vaqtinchalik xarajatlarni oshirib yuboradi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda boshlang'ich kapitalni qidirish va yig'ish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki zonani tashkil qilish bilan bog'liq barcha xarajatlar qabul qilayotgan mamlakat zimmasiga tushadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, jalb qilingan xorijiy investitsiyaning bir dollari uchun mamlakat o'z mablag'laridan to'rt dollarini sarflashi kerak.

EIZ yaratayotgan ko'plab mamlakatlar quyidagilarga erishganlar:

- iqtisodiy jihatdan qoloq rayonlarni rivojlantirish;
- texnologiyalarni modernizatsiyalash;
- yangi nou-xaularni olish;
- o'z mutaxassislarini va ishchilarini mehnatning, boshqaruvning va sotishning yangicha usullariga o'qitish;
- eksport mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun o'z xom ashyo resurslaridan foydalanish.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, EIZ yaratishdagi dastlabki maqsad va vazifalar ko'pincha haqiqatdagi rivojlanish natijalari bilan mos kelmaydi. EIZlar faoliyati davomida, ko'pincha dastlabki loyihalardan quyidagi sabablarga ko'ra voz kechiladi:

- iqtisodiy zonalardagi mavjud rivojlanish dinamikasi;
- davlat organlari tomonidan xorijiy investitsiyalarga nisbatan nazoratning yo'qligi;
- zonadagi milliy va xorijiy kompaniyalar o'rtasidagi o'zaro aloqaning bo'shligi.

Shunday qilib, har bir mamlakatda EIzlarni yaratishda, avvalo, alohida hududning rivojlanish tezligiga e'tibor beriladi.

Chet el investitsiyalari uchun qonun va imtiyozlar ishlab chiqish borasidagi chet el tajribasini qaraydigan bo'lsak, sanoati rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlik xorij kapitali va investitsiyani maxsus qonunlarsiz ham etarlicha himoyalash imkonini beradi. Bu erda xorijiy investitsiyalar ham milliy ichki investitsiyalar kabi umumiy qonunlar asosida muvofiqlashtiriladi. Bu mamlakatlardagi aniq ishlab chiqilgan qonuniy baza chet el investorlarining to'laqonli faoliyatini, ya'ni yangi kompaniyalarni tashkil etishda erkin faoliyatni (ro'yxatdan o'tkazish jarayoni, mulk huquqi kafolati), foyda olish (soliq siyosatidagi engilliklar va imtiyozlar), nizolarni tartibga solish (mehnat qonunlaridagi shaffoflik, monopoliyaga qarshi aniq tadbirlar) kabilarni kafolatlaydi.

Chet el investitsiyalarini qabul qiluvchi eng katta davlatlardan biri Xitoy davlatining tajribasi ahamiyatlidir. Xitoy hukumati investitsiyalar oqimini hududlar darajasida, mahalliy hokimiyatga katta vakolat bergan holda muvaffaqiyatli ravishda muvofiqlashtirib kelmoqda. Markaziy organlar umumiy investitsiya siyosati doirasida qaysi sohaga investitsiyalar yo'naltirish zarurligini aniqlab beradi. Mahalliy organlar esa ayni vaqtda investitsiyalarni rag'batlantirish dasturlarini ishlab chiqadi. Chet el investitsiyalarini jalb etish uchun "soliq ta'tili" va engilliklari, import tariflar bo'yicha engilliklar kabi turlicha rag'batlantirish usullari ishlab chiqilgan. Bir qator erkin iqtisodiy zonalarda tashkil etilgan korxonalarga nisbatan aynan shunday engillik va imtiyozlar ko'proq ishlatiladi. Hozirda Xitoy hukumati mamlakatning ichki tumanlariga ko'plab xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun ularga uzoq muddatga soliq to'lashdan ozod etish, foydasini hech qanday to'siqlarsiz olib chiqib ketish kabi shart-sharoitlarni yaratmoqdalar. Mahalliy hokimiyatlar mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun chet el kapitalini jalb etishni rag'batlantirish dasturlarini markaziy organlarning ruxsatisiz hayotga tadbiiq etishlari mumkin. Xitoy davlatining investitsiyalar bo'yicha qonunlari ko'p jihatdan Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur kabi davlatlarning qonunlariga o'xshash holda ishlab chiqilgan.

EIZ hududi quyidagi mezonlarga javob berishi kerak: boshlang'ich kapital qo'yilmalarni oz miqdorda talab qiladigan kichik maydondagi zona bo'lishi; infratuzilmasi yaxshi rivojlangan bo'lishi; asosiy transport magistrallari yoki jahon xo'jaligi markazlariga yaqin joyda joylashgan bo'lishi kerak.

O'zbekistonda eksport ishlab chiqarish zonalarini tashkil qilish samaraliroq hisoblanadi. Bunday zonalarda yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish kerak. Shuningdek, mamlakatimizda ilmiy-texnik jarayonlarni rivojlantirish maqsadida ilmiy-texnologik zonalarini ham tashkil qilish kerak. EIZ tashkil etishda, nafaqat iqtisodiyotni rivojlantirish, balki hududlardagi iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni hal etishni ham ko'zlash kerak.

Erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish bo'yicha jahon tajribasini o'rgangan holda O'zbekistonda ham mavjud EIZlarni rivojlantirish hamda yangi EIZlarni tashkil qilish ijobiy natijalarni beradi. Mavjud EIZlarda yuzaga kelayotgan muammolarni zudlik bilan bartaraf etish, me'yoriy darajada davlat nazoratini olib borish, bu boradagi qonuniy-huquqiy asoslarni yanada takomillashtirish kerak. Chunki xorijiy investitsiyalar bo'yicha davlat nazoratining sustlashuvi, me'yoriy-huquqiy bazadagi chalkashliklar yaxshi natijalarga olib kelmaydi.

Xulosa

Umuman, erkin iqtisodiy zonalarini joriy etishdan maqsad quyidagilar hisoblanadi: milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish; milliy iqtisodiyotning jahon xo'jaligiga integratsiyalashuv darajasini oshirish; mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash; samarali aholi bandligini ta'minlash; muayyan hudud aholisining turmush darajasini oshirish asosida butun mamlakat aholisining turmush darajasini yaxshilash; yopiq turdagi iqtisodiyotdan ochiq turdagi iqtisodiyotga o'tish; hududning innovatsiyaviy imkoniyatlarini oshirish.

Biror bir erkin zona shakllantirish maqsadlardan kelib chiqqan holda uni joylashtirishga ma'lum talablar qo'yiladi. Umumiy talablarga quyidagilar kiradi:

- ichki va tashqi bozorlarga nisbatan qulay transport-geografik joylashuv;
- transport aloqalarining mavjudligi;

- rivojlangan ishlab chiqarish salohiyati;
- ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaning mavjudligi;
- zahiralari va qimmatliklar bo'yicha tabiiy-resurs salohiyati.

Ayrim hollarda EIZ avvaldan rivojlangan hududlarda emas, balki zaruriy uzoq muddatli davlat dasturlarini amalga oshirish maqsadlarida yangi o'zlashtirilayotgan hududlarda ham tashkil qilinadi. Ularni tashkil qilishdan nafaqat iqtisodiy samara olingan, balki hududning ko'plab ijtimoiy masalalari ham hal etilgan.

Ayrim tashkil etilgan EIZlar muvaffaqiyatsiz bo'lgan. Buning asosiy sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- mamlakatdagi umumiy nobarqarorlik bilan bog'liq bo'lgan siyosiy sabablar;
- hududdagi investitsion rejim bo'yicha qonunchilikdagi investor nazaridagi o'ta chiqal iqtisodiy sabablar;
- EIZ boshqaruvi bilan bog'liq tashkiliy sabablar.

Umuman olganda, dunyodagi EIZlar, odatda xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida tashkil qilinadi. Ularning yordamida hukumat mamlakat ichidagi mavjud bir qator iqtisodiy muammolarni hal etishni ko'zlaydi. EIZlar investitsiyalarni jalb qilish orqali mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini faollashtirishga, ijtimoiy keskinlikni pasaytirishga, mamlakat mavqeini oshirishga imkon beradi. Ko'plab mamlakatlarning tajribasi ko'rsatishicha, EIZni amalga oshirish mexanizmlariga to'g'ri yondashish orqali mamlakat iqtisodiyotini yuqori darajaga ko'tarish mumkin. EIZ tashkil etishda maqsad va vazifalarni har tomonlama va chuqur ishlab chiqish, ko'plab omillarni, ya'ni mamlakatning iqtisodiy joylashuvi, investitsiya va soliq qonunchiligidagi barqarorlik, mamlakatning tashqi savdo aloqalari va boshqa omillarni e'tiborga olish kerak. Faqat shundagina EIZlar samarali faoliyat ko'rsatadilar.

Mazkur ishda bir nechta mamlakatlarning EIZ tashkil etish bosqichlari, amal qilishidagi sharoitlar va faoliyat tajribasi ko'rib chiqildi. Shundan kelib chiqib, quyidagi xulosalar shakllantirildi:

- EIZ tashkil etish, birinchi navbatda, xorijiy kapitalni jalb qilishga yo'naltiriladi;

- EIZ hududida doimiy yoki vaqtinchalik soliq imtiyozlari tizimi amal qiladi;
- EIZ rezidentlari ayrim soliqlarni to'lashdan umuman ozod qilinadi;
- savdo munosabatlarini amalga oshirish bilan bog'liq tashqi savdo imtiyozlarining taqdim etilishi eksportni faollashtiradi va importning kerakli darajasiga erishishga imkon beradi, milliy ishlab chiqaruvchiga o'z mahsulotini tashqi bozorga olib chiqishiga imkon yaratadi;
- EIZ hududiga olib kiriladigan va undan olib chiqiladigan tovarlar bojxona tekshiruvidan o'tkaziladi;
- EIZ rezidentlariga berilgan ma'muriy imtiyozlar ro'yxatdan o'tish jarayonlarini hamda ishlab chiqarish faoliyatini tezlashtiradi va engillashtiradi;
- EIZ samarali faoliyat yuritishi uchun chuqur va puxta o'ylangan siyosat yuritish lozim.

Ushbu xulosalardan kelib chiqqan holda, quyidagi takliflarni shakllantirish mumkin:

- EIZ tashkil etish bo'yicha qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirish kerak. Qonunchilikda tashkil qilinayotgan EIZning turi, maqsadi va vazifalari aniq ko'rsatilishi lozim. Tashkil qilinayotgan EIZ bo'yicha me'yoriy-huquqiy hujjatlarda xorijiy va mahalliy investorlar uchun yaratilayotgan imtiyozlar aniq ko'rsatilishi va umuman olganda qonunchilik shaffof bo'lishi zarur. Aks holda Rossiyada tashkil etilgan ayrim EIZlar singari muvaffaqiyatsizlikka uchrash mumkin;
- Mamlakatda tashkil etilgan EIZlar faoliyati bo'yicha doimiy va me'yoriy darajadagi hukumat nazoratini olib borish kerak. Bunda yuqori va quyi nazorat organlarining vazifalarini aniq qilib belgilab qo'yish zarur. Zero, Xitoyda yaratilgan EIZlar muvaffaqiyatining asosi ham u erdagi hukumatning boshqaruv va tartibga solishdagi rolining kattaligi bilan izohlanadi;
- EIZ tanlanayotganda hududning qulay iqtisodiy-geografik joylashuvi, zaruriy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasi bilan ta'minlanganligi, transport tarmoqlari rivojlanganligi, yuqori darajadagi ilmiy, texnik va ta'lim salohiyatiga egaligi kabi xususiyatlar e'tiborga olinishi lozim. Aks holda tashkiliy ishlar uchun davlat tomonidan katta xarajatlar qilishga to'g'ri keladi;

- Mamlakatimizda sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarga ko'proq ehtiyoj seziladi. Shu sababdan ham bizda tashkil etilayotgan EIZlarda qo'shni mamlakatlarda tashkil etilgan EIZlarga nisbatan xorijiy investorlar uchun yaxshiroq imtiyozlar taqdim etilishi kerak. Buning uchun, albatta, qo'shni davlatlarning amaldagi qonunchiligi o'rganilishi va tahlil qilinishi lozim. Ko'pgina xorij mamlakatlarining tajribasi ko'rsatishicha, EIZ ishtirokchilari birinchi foydasini olgan vaqtlaridan boshlab, 5 yil muddatga foyda va daromad solig'idan ozod qilinadilar. Keyingi 5 yilda zona ishtirokchilari foyda solig'i uchun belgilangan stavkaning 50%ini to'laydilar, lekin bunda byudjetga to'lanadigan soliq summasi olingan daromadning 25%idan oshmasligi kerak. Ikkinchi 5 yil tugagach, zona ishtirokchilari barcha uchun qabul qilingan stavka bo'yicha foyda (daromad) solig'ini to'laydilar. Bu investor uchun kiritgan investitsiyasini qaytib kelishi uchun yaxshi imtiyoz hisoblanadi. Agar imtiyozlar etarli hajmda bo'lmasa, EIZ investorlarni jalb qila olmaydi, agar keragidan ortiqcha hajmda bo'lsa, byudjet yo'qotishlarga uchraydi. EIZning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishini garovi bo'lib, uzoq muddat davomidagi qonunchilikning barqarorligi hisoblanadi;
- Jahon tajribasi ko'rsatishicha, EIZlarda soliq imtiyozlarini taqdim etish zarur, lekin EIZni yaxshi faoliyat yuritishi uchun bu etarli emas. Biznes yuritish uchun qulay tadbirkorlik muhiti, masalan ma'muriy to'siqlarning bor yoki yo'qligi ham katta ahamiyat kasb etadi. Investorlar uchun etarlicha ma'muriy imtiyozlarni ham taqdim etish kerak. Masalan, EIZ hududida ishlovchi fuqarolar va xorijiy investorlar uchun qulay viza tizimini joriy etish; EIZ hududida xorijiy bank filiallarini tashkil qilishga ruxsat berish va boshqalar;
- Ko'proq iqtisodiy samaraga erishish uchun EIZ hududi katta joyni egallashi shart emas. Jahon tajribasi ko'rsatishicha, EIZ hududining optimal hajmi bir-ikki kv.km.dan bir necha kv.km.gacha bo'lishi lozim. Chunki EIZ qancha katta hududni egallasa, davlat tomonidan ham uni yaratish uchun shuncha katta xarajat talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonuni. 1996 yil 25 aprel
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Navoiy viloyatida erkin industrial-iqtisodiy zona tashkil etish to'g'risida"gi farmoni 2008 yil 2 dekabr
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Angren maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi farmoni. 2012 yil 13 aprel
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jizzax maxsus industrial zonasini barpo etish to'g'risida"gi farmoni. 2013 yil 18 mart
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Milliy universitetida Kembrij universiteti bilan hamkorlikda ilmiy-tadqiqot markazini tushkil qilish to'g'risida"gi Qarori. 2011 yil 26 oktyabr
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Navoiy EIZ faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2009 yil 27 yanvar
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Navoiy EIZ direktsiyasi Davlat unitar korxonasining Ustavini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori 2009 yil 19 fevral
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning "Navoiy" EIZ hududiga kirishi, undan chiqib ketish, u erda bo'lish va ishga yollanishining soddalashtirilgan tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori 2009 yil 9 aprel
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Navoiy EIZ faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori 2009 yil 9 aprel
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Navoiy EIZ hududida alohida bojxona rejimi hamda alohida soliq rejimini ta'minlash tartibi to'g'risida"gi Qarori 2009 yil 23 aprel
11. Karimov I.A. "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" - T.: O'zbekiston, 2011 yil

12. Karimov I.A. "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari». - T.: O'zbekiston, 2009 yil
13. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. - T.: O'zbekiston, 2010 yil
14. Karimov I.A. "Bosh maqsadimiz - keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish". T.: "O'zbekiston", 2013 yil
15. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008 г.
16. Vahabov A.V. va boshqalar. "Xorijiy investitsiyalar". T.: "Moliya". 2010 yil
17. Данько Т.П. Свободные экономические зоны. М., 2010.
18. Друзник Я.С. Свободные экономические зоны. М: 2008 г.
19. Зименков Р.И. Свободные экономические зоны. Учеб. пособие для ВУЗов. - М.: Юнити-Дана, 2005.
20. Игнатов В. Свободные экономические зоны. - М.: Ось-89, 2009.
21. Jumaev N.X., Abduraxmonov O.Q. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi: sabablari va uni bartaraf etish muammolari. T.: Akademnashr, 2010 y.
24. Ломакин. В.К. Мировая экономика: учебник. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008.
25. Mahmudov N.M, Madjidov Sh.A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2010.
26. Мировая экономика: учебник /под. ред. Б.М. Смитиенко. - М.: Высшее образование, Юрайт - Издат, 2009.
27. Муминов Н.Г. Свободные экономические зоны. T.: НУУз, 2005.
28. Nazarova G., Xaydarov N. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. - T.: TDIU, 2005.
29. Nazarova G. , Xalilov X., Safarov N. Erkin iqtisodiy hududlar /prof. A.Sh.Bekmurodov tahriri ostida (darslik), TDIU, 2011 y.
30. Орлова Е.Р. Иностранные инвестиции в России: учеб. пособие / Е.Р. Орлова, О.М. Зарянкина. - М.: Издательство «Омега-Л», 2009.
31. Приходько С.В., Воловик Н.П.. Особые экономические зоны. - М.: ИЭПП, 2007
32. Сайдловска-Мартини Э. Функционирование свободных экономических зон в мире. // М.: Инфра-М, 2010.

33. Фаминский И.П. Глобализация - новое качество мировой экономики: учеб. пособие. - М.: Магистр, 2009.
34. Xodiev B.Yu. va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi" mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. - T.: Iqtisodiyot. - 2011.
35. Xodiev B.Yu., Bekmurodov A.Sh., G'afurov U.V. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish - ustuvor maqsadimizdir» hamda «Asosiy vazifamiz - Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir» nomli ma'ruzalarini o'rganish bo'yicha o'quv qo'llanma - T.: Iqtisodiyot. - 2010.
36. Xoliqulov A.R. Erkin iqtisodiy zonalar: nazariy asoslari va jahon tajribasi. T.:JIDU. 2002.
37. Ergasheva Sh., Uzoqov A. Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish. O'quv qo'llanma.- T.: Iqtisod-moliya, 2008.
38. G'ozibekov D., Nosirov E. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish. Risola "IQTISOD-MOLIYA" nashriyoti, 2007.
39. Hamroev H.R. Zonal siyosat: metodologiya xorijiy tajriba va qo'llash yo'nalishlari. -T.: Fan, 2008.
40. Муфтайдинов Қ. Зонь1 экономического предпринимательства. // Бозор, пул ва кредит. - Т, 2003. - № 7.
41. Raimjonova M. O'zbekiston erkin iqtisodiy hududlariga investitsiyalarni jalb qilishni faollashtirish. Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya aftoreferati. - T. Bank moliya akademiyasi. 2012 yil
42. Raimjonova M. Rivojlanayotgan davlatlarda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish amaliyoti va tajribalari. // Moliya. T., 2010 yil 2-son
43. Raimjonova M. Erkin iqtisodiy hudud va uni O'zbekistonda tashkil etish zaruriyati hamda imkoniyatlari. // Moliya. T., 2011 yil 1-son
44. National Association of Free Trade Zones, 2005
45. 70th Annual report of the Foreign-Trade Zone Board to the Congress of the U.S. 2009.

46. Internet saytlari:

- www.12.uz/ru/news/show/economy/5471
- www.allchina.ru/
- www.chinastar.ru
- www.fias.net/conference/EcozonesIndiadocs/KRao.pdf
- www.gov.uz
- www.Grandars.ru
- www.worldeconomic.com
- www.yandex.ru
- www.navoi.uz
- www.stat.uz
- www.uzdaily.uz/PVKXM/articles-id-6685.htm